



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani dots.B.Jo'rayev
“ _____ ” _____ 2013 yil

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
5141700 – “Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti” yo'nalishi
4-kurs 405-guruh talabasi

NORQOBILOVA MAFTUNA MAXMUDOVNA ning

**“OILADA OTA-ONA MA'NAVIYATI BOLA TARBIYASINING
ASOSIY OMILI” MAVZUSIDA YOZGAN**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: _____ dots.X.Karimov
“ _____ ” _____ 2013 yil

Q A R S H I – 2013

M U N D A R I J A

	Kirish.....	3
I-Bob	Oilada ota-ona munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlili.....	4
1.1.	Oilalarda ota-ona farzand munosabatining psixologik xususiyatlarini o'rganish.....	4
1.2.	Ota – ona ma'naviyati bola tarbiyasining omili sifatida.....	12
II-Bob	Oilada bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillarning amaliy jixatlari.....	25
2.1.	Bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillar.....	25
2.2.	Oilada bola tarbiyasiga ma'naviy psixologik muhitning ta'siri....	41
	Xulosa.....	56
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	58

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi: Oilaning ma'naviy-psixologik muhitini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarning shakllanganlik darajasi undagi ma'naviy muhit va oila a'zolarining sog'lom fikrlashi darajasiga bog'liq ekanligi isbotlangan. Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi bola tarbiyasida ota-ona ma'naviyatining o'rni, oilaviy o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatli xolatlar, va uning bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi tanlangan.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchlari milliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur mavzu bo'yicha mutafakkirlarimiz me'roslarida katta e'tibor qaratilgan. Xozirgi kunda ham psixolog, pedagog, ma'naviy sohasidagi olimlarimiz mavzu bo'yicha qator asarlar yozilgan va taxlil qilib berishgan. Oilada ota-ona ma'naviyatini bola tarbiyasiga ta'siri tadqiqot sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning maqsadi. Oilada ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ota-ona ma'naviyatining bola tarbiyasiga ta'siri hamda har bir oila a'zosining ijtimoiy-psixologik mavqeyi, oilaviy munosabatlarga tayyorligi xususiyatlarini o'rganish ilmiy ishning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti. Oilada ota-onalar va bolalar

Ilmiy tadqiqotning predmeti. Oilada ota-ona ma'naviyatining bola tarbiyasida shakllanishidagi o'rni tadqiqotning predmeti qilib olingan.

Tadqiqot vazifalari. Ilmiy maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini taqozo etadi:

Oilada farzand tarbiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillar to'g'risidagi adabiyotlar va boshqa manbalarni tahlil qilish.

Oilaviy o'zaro munosabatlar negizida shakllangan farzand tarbiyasi bilan bog'liq ma'naviy omillarni aniqlash.

Oilalar va farzandlarni kuzatish va suhbat jarayoni orqali ota-ona ma'naviyati va munosabatlarining bola tarbiyasiga ta'sirini o'rganish.

Ilmiy tadqiqot metodlari. Nazariy taxlil, kuzatish va suhbat.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, shuningdek mavzuga oid ilmiy-uslubiy masalalar va muajmualar.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Oilada ota-ona ma'naviyatining bola tarbiyasidagi o'rnini o'rganilishi nazariy-amaliy hissa bo'lib qo'shiladi. O'rganish jarayonida to'plangan nazariy ma'lumotlar mahalla faollariga va yosh oilalarga tavsiya tarzida xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, asosiy matn 59 bet dan tashkil topgan.

I–Bob. Oilada ota-ona munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlili

1.1. Oilalarda ota-ona farzand tarbiyasining psixologik xususiyatlarini o'rganish

Qadim zamonlardan yosh avlod tarbiyasiga keksa avlod tajribalarini o'zlashtirish shakllaridan biri sifatida qarab kelingan. Oiladagi tarbiyada asosan mehnat faoliyati jarayonida turli urf-odat, marosim va qadriyatlar, shuningdek, oilaning asrlar davomida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analar orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, imon, e'tiqod, mas'uliyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari tezroq shakllanadi. O'zbek oilalarida bola ongida sog'lom g'oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, bola tarbiyasida ota-onadan ham ko'ra bobo va buvilarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhimo'rin tutgan. Buni turli o'zbek adabiyotlarini varaqlab ham ko'rish mumkin. Shaxsning kamolotga etishishi uchun oila muhim. Bundan ko'rinadiki, tarbiya masalalarida aynan oilaning ta'siri juda yuqori bo'ladi. Ulug' bobokalonlarimiz va ajdodlarimiz, buyuk mutafakkirlar ham oilada tarbiya ko'rgan va ular oilani muqaddas dargoh deb bilishgan. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar eng avvalo, oilada shakllanadi. Oilada sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit hukm sursagina, oila a'zolari ongi va tafakkurida ertangi kunga ishonch hissi jo'sh ursagina, jamiyat va mamlakat taraqqiyoti sari qadam tashlaydi. Bu esa, o'z navbatida, istiqbolning dastlabki kunlaridan boshlab xalq ruhiyati, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, kundalik turmush tarzi talablaridan kelib chiqib, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy, ekologik

sohalaridagi tub islohotlarning samarali amalga oshishi uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham mustaqil davlatimizda oilani mustahkamlash va barqarorlashtirishga asosiy e'tibor qaratilib, bugungi kunda fuqarolar daxlsizligini ta'minlash, oila, onalar va bolalar muammolarini hal qilish, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish muhimahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida oila va u bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lib, bu avvalo, oila institutining jamiyatimizda yuksak darajada qadrlanishi bilan izohlanadi. Zero, yurtimizda ijtimoiy hayotni isloh qilish borasidagi barcha sa'y-harakatlar, eng avvalo, yoshlarda oila institutiga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish, to'g'ri hayotiy falsafa asosida ma'naviy jihatdan sog'lom oilani barpo etishga ruhiy hozirlikni qaror toptirishdan iboratdir. Muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va moderinizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir" nomli ma'ruzalarida 2012- yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilar ekanlar, ".. mustah kamoila va baxtli turmush, avvalam bor, oila quradigan yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab etishiga bog'liq," deb alohida e'tirof etdilar.

O'zbekistonda jamiyat ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishning asosiy jihatini – bu onalar va bolalar sog'ligini saqlash, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi, xotin-qizlar o'rtasida ish olib borishning samarali va zamonaviy yo'llarini topish ekan, bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan ham alohida o'rin ajratilganligi bejiz emas, albatta. Asosiy qonunning "Oila" deb atalgan 14-bobining 63-66-moddalarida oilaning jamiyatda tutgan o'rni, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, oilaning moddiy va ma'naviy jihatdan mustaqilligi, uning ma'naviy-axloqiy asoslari, farzandlar tarbiyasi, kelgusi avlod taqdiri bilan bog'liq holda ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti yo'lida oilaning rolini yanada oshirish, jamiyatning bir bo'g'ini sifatida uning barqarorligini mustahkamlash, o'sib

kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy hamda ruhiy jihatdan nikohga tayyorlash, milliy istiqlol mafkurasi va milliy ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirishda oilaning rolini kuchaytirish, ijtimoiy muammo sifatida oilaning barbod bo'lishini oldini olish maqsadida davlatimiz rahbari Islom Karimov 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qilishi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. 1997- yilning 5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining besh yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali yiqilishda Prezidentimiz har bir inson hayoti, jamiyat a'zolari oldiga shunday masalani ko'ndalang qo'yadi: "... oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni, avvalambor, ijtimoiy jihatdan himoyalash, ularni e'zozlash va qo'llab-quvvatlash – bugungi kunimiz va ertangi isti'bolimiz uchun naqadar muhimva dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor". Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 2- fevraldagi Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida"gi harori oila manfaatlarini takomillashtirish yo'lida qo'yilgan salmog'li qadam bo'ldi. Bu harorga binoan, O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi qoshida "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etilib, ushbu markaz, dastavval, oilaning ravnaqi bilan bog'liqmuammolar majmuasini jamoatchilik fikrini o'rgangan sotsiologik va psixologik tadqiqot metodlariga tayangan holda ilmiy jihatdan tadqiq etish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishni o'zining asosiy vazifalaridan biri, deb biladi. Mazkur markazning faoliyati jamiyat va davlat taraqqiyoti manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lib, oilani rivojlantirish va takomillashtirish, oila a'zolarining salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy o'rganish bilan bir qatorda, ushbu dolzarb muammolarni qal qilish yuzasidan amaliy tadqiqotlar majmuasini bajaradi.

O'z navbatida, 1998- yilning 30- aprelida Oliy Majlisning XI – sessiyasida qabul qilingan va 8 bo'lim, 238 moddadan iborat bo'lgan "Oila Kodeksi"da oilaviy munosabatlarda erkak va ayolning teng huquqlilik tamoyili mustahkamlandi, shuningdek, oiladagi mulk, bola tarbiyasi va boshqa jihatlar yangi zamon talablari asosida talqin etildi. Umuman, Kodeksda oila davlatning moddiy va ma'naviy poydevori, jamiyat ustqurmalaridan biri sifatida qaralib, jamiyatning tadrijiy

rivojlanishida muhim rol o'ynashi qonuniy asoslab berilganligi bilan beqiyos ahamiyatga ega. Qolaversa, 2012-yilning Prezidentimiz tomonidan "Mustahkam oila yili" deb nomlanishi ham yuqoridagi amaliy tadbirlarning davomidir. Istiqlol yo'liga qadam qo'yilgan dastlabki kundanoq hanuzgacha insoniyatning ilohiy va mo'jizaviy kashfiyoti bo'lgan oilaning barqarorligi, mustahkamligi hamda mustaqilligiga asosiy e'tibor qaratilib, oilaning tarixiy ravnaqi va unda jismoniy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy jihatdan sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga oid masalalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi va shular doirasida qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar asosida huquqiy kafolatlanib kelinmoqda.

Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining ser ildizlik, xususiyatlari avval qanday bo'lsa, hozir ham boshqa millat kishilarida xuddi shunday ham g'ayrat, ham hurmat uyg'otgan xususiyatlardir.

O'zbek oilalarining tuzilishiga nazar solsak, uning katta Vatan ichidagi mo'jiz Vatan ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida, birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama etuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib etishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada axloq-odob me'yorlariga bo'ysunishga o'rgatadi va psixologik jihatdan tayyorlaydi. Qolaversa, mustahkam va baxtli oila qurishga yigit-qizlarni ilk yoshlikdan tayyorlash, oila muhitida hamda barcha ta'lim bo'g'inlarida bu ishlarni bosqichma-bosqich izchil davom ettirish olib borayotgan siyosatimizning naqadar istiqbolga qaratilganligini ta'kidlash joiz.

Ma'lumki, o'zbek oilasi bolajon bo'lib oilada voyaga yetadigan farzandning yoshidan qat'iy nazar alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, oilada sog'lom turmush – tarzining tashkil etilishi kelgusida shu oilada voyaga etadigan farzandlarning ham

ma'nan, ham jismonan voyaga etishlari uchun zamin yaratadi. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birgalikda uni atrofidagi xayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ma'nan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetqazish, faqat ota- onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan balki ijtimoiy burchi ham sanaladi.

Shu jixatdan olganimizda oilada, har bir ota- onaning burch va vazifasiga oilada sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barharorligi, farovonligiga erishish, oilada bilimli, aql- zakovatli barkamol avlodni voyaga etkazishi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashda oila, maxalla, ta'lim muassasalari va jamoatchilik muhiti katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega. Chunki bola oilada mehnatga, hunarga o'rgatilsa tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Oila muhiti bola shaxsining shakllanishi va kamol topishida tabiiy shart – sharoit yaratadi. Oila nafosat, go'zallik, turmush va tarbiyaning boshlang'ich maktabi. Shuning uchun oilada ota- ona va boshqa a'zolarining yagona birligi bolaning estetik rivojlanishiga kuchli ta'sir etuvchi go'zallik tushunchasining asosini tashkil etadi. Oila turli xil estetik kechinmalarning asosi bo'lib, bu har bir insonning tabiatan ta'sirlanishiga imkoniyat beradi.

Bizga ma'lumki, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish va unga amal qilish doimiy dolzarb masala ekanligi bilan xammaning diqqat markazida turadi. O'zbek oilalarida sog'lom turmush tarzini yuqori darajaga ko'tarish oilaning har bir a'zosi uchun ko'nikma va odat darajasiga aylantirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan oilada har bir ota- ona farzandlarga o'rnak va namuna ko'rsatishi, bolalarga yoshlikdan berilgan vazifani to'la bajarishga odatlantirish malakasini singdirish, bola shaxsida fikrlar bilan birgalikda qaror qabul qila olish, qat'iylikni shakllantirish lozim. Bularni amalga oshirish uchun ularda madaniy gigienik ko'nikmalar (tishlarni doim tozalash, ovqatdan oldin albatta qo'lni yuvish, doimo toza va ozoda bo'lib yurish va xokozolar) ni shakllantirib borish ham o'zining ijobiy natijasini bermay qo'ymaydi.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yana bir jihatga aloxida e'tibor haratish lozimki, bu oilani ma'naviy – axloqiy jihatdan sog'lomlashtirishda yuqorida ta'kidlanganidek ta'lim muassasalari va mahallaning oila bilan uzviy aloqada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda muomolada ham ma'lum bir mezonlarga amal qilish ham muhimdir. Masalan, oila a'zolari, mahalladagi katta yoshdagi kishilar va ta'lim muassasalarida ustozlar bilan to'g'ri muomolada bo'lish, to'g'rilik, xushfe'llik, bajara olmaydigan ishiga va'da bermaslik, ko'rkam xulq bilan munosabatda bo'lish kabilar.

Ta'kidlash mumkinki, yuqorida qayd etilgan masalalar mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratsak, oilada sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotining abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor”, - degan edi. Darhaqiqat, oila avlodlarda barkamollik sifatlarini tarbiyalaydigan, ularni ajdodlarimizning boy ma'naviy olami bilan tanishtiradigan, yoshlarda ma'naviy yetuklikning shakllanishga zamin tayyorlaydigan tarbiya maskani.

Oilaning ma'naviy olami serqirra hodisa bo'lib, nainki oilaning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy mavqeini, balki tarixiy taraqqiyotga xos xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarini, demografik, etnografik an'alarini ham qamrab oladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'alar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllanadi”. Oila ma'naviyati eng kuchli tarbiya vositasidir. Boshqa hech bir kuch uning o'rnini bosa olmaydi. Chunki inson xarakterining asosi besh yoshgacha shakllanadi. Ana shu yoshgacha ekilgan tarbiya urug'larigina keyinchalik yaxshi natija berishi mumkin.

O'zbek oilalari ma'naviy an'analarga boy. O'zbek oilasining uzoq yashovchanlik siri va saodati ham aslida uning ma'naviy an'analarga boyligidadir. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, hozirgi davrni tahlil qilsak ham dunyoda o'zbek oilalari kabi mustahkam, bola tarbiyasiga mas'uliyat bilan qaraydigan oilalar kamligiga guvoh bo'lamiz. Xuddi shu nuqtai nazardan o'zbek oilalarining ma'naviy asoslarini tadqiq etish bugungi kunda olimlar oldida turgan muhim muammolardan biridir. Chunki shunday ulug' tarixga ega bo'lgan, azaldan mustahkam boy ma'naviy olami bilan mashho'r bo'lgan mamlakat oilalarining ba'zan buzilib ketayotgani sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish choralarini tadqiq etish har qachongidan ham muhim vazifadir. Chunki har qanday oilada jamiyatimiz kelajagining davomchilari, boy ma'naviy olamimizni yanada boyitib uning yuksakligini dunyoga tarannum etadigan yosh avlod kamol topadi. Birgina buzilgan oila qancha o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasini xavf ostiga qoldiradi. Bu esa jamiyatda tarbiyasi buzilgan bolalarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Azal azaldan o'zbek millatida nikoh va oila muqaddas sanalgan. Uning buzilishiga yo'l qo'yilmagan. Lekin mustabid tuzum davrida bir qancha salbiy holatlar kirib keldiki, natijada oilaning buzilishini normal hol deb qarala boshladi. Yoshlarning ota-ona irodasiga qarshi oila qurishlari rag'batlantirildi, xarakteri to'g'ri kelmaganligi sababli ajralishiga befarq haraldi. Buning oqibatlarini tahlil qilinmadi. Natijada oila ma'naviyati biroz darz ketdi. Bugungi kunda bunday hodisalarning millatimiz uchun nihoyatda zararli ekanligini yoshlar bilishlari zarur. Buni tushuntirishda ma'naviy qadriyatimizning mohiyati, milliy an'analарimizning mazmunini yoshlar o'rganishlariga sharoit yaratish zarur.

Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchlari ham o'zbek millatida oliy qadriyat hisoblanadi. Bu kabi masalalarga bizning ma'naviyatimiz xazinalari bo'lmish "Qur'oni Karim", "Hadislar", ajdodlarimiz merosi bo'lmish "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "g'ayratul Abror", "Farhod va Shirin", "Maqbul - qulub", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va boshqa bir qator didaktik asarlarda katta e'tibor haratilgan. Bunday asarlar yoshlarda oilaga e'tiqod va mas'uliyatni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

1.2. Ota – ona ma'naviyati bola tarbiyasining omili sifatida

Oilada kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlod shakllanadi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib, voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", - degan edi. Darhaqiqat bolalarning sog'lom, baquvvat o'sishi, ma'naviy komillikka erishuvi uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Lekin bu imkoniyatlardan to'la va maqsadli foydalanishda oilaning o'rnini juda katta.

Oilada bolalarga juda kichik yoshdan boshlab barkamollik sifatleri tarbiyalanib boradi. Bola avvalo oila muhiti asosida tarbiyalanib, shakllanib boradi. Shuning uchun ham oilada bolaning har bir harakati, uning do'stlari, odamlarga muomilasi kabilar kuzatilib, undagi o'zgarishlar, xulqidagi kamchiliklar bartaraf etilib borishi lozim. Bolani yosh niholga o'xshatish mumkin. Yosh niholni o'stirishda uning ortiqcha shoxlarini kesib, tinimsiz parvarishlab borsangiz u ko'rkam daraxtga aylanadi. Bola kichikligida juda shirin harakatlari va qiliqlari bilan ota-ona va atrofdagilar diqqatini jalb qiladi. Shunday davrda uning barcha inijliklari va talablarini ota-ona bekami ko'st bajaradi. Bu esa bolada xudbinlikni tarbiyalaydi. Tarbiyada mayda-chuyda bo'lmaydi. har bir kichkina harakatga ham berilgan to'g'ri yoki noto'g'ri baho o'z natijasini ko'rsatadi.

Insonda barkamollik sifatleri birdaniga shakllanib qolmaydi. U qadamba-qadam bola qalbiga singdirib boriladi. Bolaning sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishi, bilimli zukko, ma'nan yuksak bo'lib o'sishiga dastlab oilada zamin yaratiladi. Keyin maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bunday sifatleri shakllantirish davom ettiriladi. Prezidentimiz yosh avlodni ma'nan yuksak bo'lib o'sishi uchun tinimsiz hamxo'rlik qilmoqda. Bolalar sportini rivojlantirish, bolalar ta'lim oladigan muassasalarning moddiy texnik

ba'zasini mustahkamlash kabi sohalaridagi tadbirlar shular jumlasidandir. Lekin mana shu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish uchun ham oila ma'naviyatining o'rni beqiyos.

Oilada bolaning sog'lom o'sishi, qiziqishi bo'yicha sport, musiqa va boshqa to'garaklarga qatnashini tashkil etish, kitob o'qishi o'qituvchining topshiriqlari asosida mustaqil ishlashi uchun imkoniyatlar yaratilishi va kun maromini mazmunli o'tishiga sharoit yaratish zarur. Ota-onalar, oiladagi bobo va buvilarning bolalar bilan tez-tez suhbatlashishlari, nasihat qilishlari, ularga turli ertaklar, rivoyatlar va hikoyatlarni aytib berishlari bolaning ma'naviy shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bolalarni muhitning salbiy ta'sirlaridan asrash ham muhima hamiyatga ega. Mamlakatimizga axborot texnologiyalarining kirib kelishi, bolalarning kompyuterlarda bemalol ishlay olishlari, internetda ishlashi, albatta, ularda intellektual salohiyatning o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Lekin axborot texnologiyalarining buzg'unchig'oyalarni tarqatishga imkoniyat berishi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bolalarning internetda turli buzg'unchi g'oyalar bilash ishlashlari, ular bilan aloqa bog'lashlaridan xabardor bo'lish va ularning insoniyat uchun zararli oqibatlarini bolalarga tushuntirish bugungi kunda tarbiyachilar va ota-onalarning muhim vazifalari hisoblanadi. Shuningdek, turli disklar va mobil telefonlarning keng tarqalishi oqibatida ham turli salbiy oqibatlar ko'zga tashlanmoqda. Mobil telefonlar, birinchidan, bolalarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan, ularning ma'naviy sifatlarining ojizlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Chunki mobil telefonlardagi turli pornografik xabarlar bola axloqining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham yosh bolalarning telefon ishlatishlari unchalik maqsadga muvofiq emas deb o'ylaymiz. Bu masalaga ota-onalar diqqatini haratish ham bugungi kunda zarur masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Sog'lom muhit shakllangan oilada o'sgan bolalar bunday ta'sirlarga tez berilmaydilar, ularda mustahkam e'tiqod, ma'naviy komillik shakllangan bo'ladi. har qanday buzg'unchi ta'sirlarga harshi tura bilish immuniteti shakllangan bo'ladi.

Bunday bolalarni o'z e'tiqodidan qaytarish oson bo'lmaydi. Shuning uchun ham oila muhitining sog'lom bo'lishi, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatlarni ishga solinishi jamiyatimiz kelajagi poydevorining mustahkam bo'lishi kafolatidir.

Oilada bola ma'naviyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:
oilada kattalar o'rtasidagi muomala madaniyati, ya'ni sog'lom oila muhiti;
oiladagi er-xotin o'rtasidagi munosabatdagi o'zaro hurmat;
bola tarbiyasiga keksa bobo va buvilar ishtiroki;
oilaning mahalla va qo'ni-qo'shnilar bilan aqil munosabati;
oilada ilmga, kitobga, ma'naviy merosimizni o'rganishga bo'lgan munosabat;
bola tarbiyasiga mas'uliyatning yuqoriligi; bolalarda yuksak ma'naviyat va keng dunyoqarash, mustahkam g'oyaviy e'tiqodni tarbiyalash;

o'g'il va qiz bolalar tarbiyasida o'ziga xoslikni e'tiborga olish (gender yondoshuv);

tarbiyada oila mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligi;

oilalarning xo'jaligining oqilona tashkil etilishi bolani mustaqil hayotga tayyorlash;

Oilalarning va oilaviy munosabatlarning, ayniqsa, ota-ona va farzandlar o'zaro aloqalari, jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko'proq darajada o'zlashtiradi va an'ana ma'naviy meros tarzida avlodlardan avlodga o'tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat xalq va millatning istiqboli ko'p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog'liq. Buning uchun esa oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkam bo'lishiga erishish lozim.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud. Uning aytishicha, ota-onalar ikki xil tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli ikkinchisi ruhiy hayot sababli. Shunga ko'ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim

ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq muallimni insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib "Alla" ikki vazifani bajaradi deydi. Birinchisi uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom ba'ishlanadi; ikkinchisi beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga butun shuuriga singib boradi.

Oilaviy tarbiyaning mohiyatini to'g'ri tushunish, uni bir qator psixologik jihatlarini tadqiq etish imkoniyatlarini ochib beradi. hozirgi kunda psixologlar, sotsiologlar va keng jamoatchilik tomonidan oila va oilaviy tarbiya muammosi dolzarb masala sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Jumladan, V.M.Karimovanning "Yoshlarda o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar" deb nomlangan ilmiy ishida o'zbek oilasidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruhlarda namoyon bo'lishini empirik jihatlariga asoslanib tadbiq etiladi va oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shaxsning oilaviy munosabatlar doirasidagi xulq-atvorni boshharuvchi va aniq sharoitlarga moslashtiruvchi vazifalarni bajarishini ilmiy asoslab berishga harakat qiladi. N.Soqinov Q.Usmonov va B.Umarovlar oilaviy janjal va nizolarning oqibatlarini o'rganib, ular oxir oqibat nafaqat er-xotin o'rtasidagi balki ota-onalar va bolalar qarindosh urug'lar o'rtasidagi munosabatlarni ham buzilishi, nikohdan qoniqmaslikka olib kelishi hollari, ayollar o'rtasida o'z joniga qasd qilishlar eng achinarlisi bu jarayon o'smir va bolalar o'rtasidagi sutsidial hulq-atvorning ham sababi bo'lib qolishini ta'kidlaydilar. Albatta bunday oiladagi kelishmovchiliklar bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan tasiri benig'oya kattadir, Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'i va yordamiga muhtoj bo'ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo'ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishining stimulyatori bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, har bir oiladagi munosabatlar o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-ona va bola munosabatlarining umumiy jihatlari ham mavjuddir. Ota-onalar bolalar xulq-atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko'ra o'rtadagi munosabatlar ko'pincha "demokratik" va "avtoritar" nazorat qiluvchi kabilarga ajratiladi.

Bolalarga oilaviy ta'sir etishning "demokratik" shakli uchun quyidagilar xos: bolaga ko'p narsaga ruxsat beriladi, bola bilan ko'p aloqa va munosabatda bo'lish, unda ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'linadi, ota-onalar bo'lar-bo'lmas ta'qiblarini qo'ymaslikka harakat qiladilar, buning o'rniga ular bolalarga oiladagi tartib qoidalarini tushuntirishga intiladilar. Iloji boricha bolalarining savollariga javob berishga, ularning qiziquvchanliklarini qondirishga harakat qiladilar.

Oiladagi "avtoritar" muhit bolalarga nisbatan haddan tashhari qattiqqullik bilan xarakterlanadi. "hukmron" ota-onalar boladan to'liq buysunishini talab qiladilar. Bunday oilalarda bolalarga xulq-atvor qoidalarini tushuntirishga qaratilgan muloqot kamdan-kam o'tkaziladi.

Shu narsa aniqlanganki, "avtoritar" va "demokratik" oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarida muayyan farq mavjud bo'ladi. "Demokratik" oilalarning farzandlari ijodkorlikka moyil tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, konformizmni (fikrga tobe bo'lishni) inkor etuvchi ijtimoiy munosabatlarida ko'proq emotsiyalarni his etuvchi bo'ladilar.

Yuqoridagi natijalarda xulosa qiladigan bo'lsak, shaxsda o'z-o'zini anglash oiladagi psixologik muhit, ota-onaning shaxsiy namunasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ulg'ayayotgan shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida oiladagi sog'lom muhit katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bog'liq. Masalan, oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari to'g'ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalari tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lish kabilar shular jumlasidandir.

Ularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, shu oiladagi sog'lom muhitga putur etadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mexribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak.

Bolalarga onani hurmat qilishga, unga mexribon bo'lishni o'rgatish ota-onaning muhim vazifasidir.

Odatda o'g'il otasiga, qiz bola onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham ona ham bolani tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan o'y bekasi bo'lsa, ota - kuch-qudrat, jasurlik, qattiqqo'llik va adolat ramzi. Ota ko'proq bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg'ursa, ona ham bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhan va ma'nan kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning muvaffaqiyatli bajarilishi, ko'p o'rinda ota-onaning obro'siga bog'liq. Manfaatlari umumiy bo'lgan oilada yaxshi odat, an'analar vujudga keladi.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o'ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralashmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko'ra, oilada ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lgan bo'lsa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilish orqali fuharolar o'z mintaqalarini himoya qilishlari va davlatning madadiga erishishlari mumkin.

Ikkinchi tomondan, oila ikki oilaning, unda tarbiyalanayotgan ikki yoshning ixtiyoriy kelishuvi, tanlovidan hosil bo'lgan ittifoq bo'lgani uchun ham ushbu jarayonlarga ham aralashmaydi, chunki bu shaxsiy muammo. Lekin davlat fuqorolarning “erkin nikohlari”ga, xohlagan paytda xohlagan inson bilan o'zi bilganicha nikohga kirib yoki kirmay yashashiga befarq bo'la olmaydi. Chunki bu jamiyatning aqloqiy tomirlarini kesishi mumkin. Shuning uchun turli xil oilani qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar borki, ular oila-nikoh borasidagi noxaqliklar bo'lgan sharoitda, oilada bir yoki bir necha a'zoning insoniy manfaatlari tahqirlangan sharoitda, farzandlar ota-onasining nojo'ya harakatlari tufayli ko'chada qolish xavfi paydo bo'lganda o'zining jamoatchilik tashkilotlar, jumladan, xotin-qizlar komissiyalari, yarashtirish komissiyalari, “Oila” markazlari, oqsoqollar orqali bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'radi, kerak bo'lsa, ularni xukumat dasturlari yoki qarorlari asosida mustahkamlaydi.

Oilaning mustahkam va barqaror bo'lishi uning a'zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitilayotgan “Oila psixologiyasi” kurslarining uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir.

har bir xalq va uning tarkibiga kiruvchi turli millatlarning an'analari, urf-odatlar, va marosimlari muayyan xalqning tarixiy hayotiy tajribalari mahsuli sifatida vujudga kelgan. Ular oiladagi moddiy va ma'naviy hayotni tashkil etish, o'zaro oilaviy munosabatlarni tarkib toptirish asosida paydo bo'lgan, rivojlangan, takomillashgan, asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelgan va yosh avlodni tarbiyalashning kuchli va samarali vositasiga aylangan.

Insoniyat tarixida hali-hanuzgacha, oiladek insoniyatning uzluksizligini, millatni jipsligini ta'minlovchi an'analar, urf-odatlar, marosim, rasm-rusum,

ajdodlar tajribasi, malaka va ko'nikmalarini shakllantiruvchi hamda keyingi avlodga asrab-avaylab etkazib beruvchi kuchli vosita yaratilmagan.

Hozirgi davrda nihoyatda tezkorlik bilan inson va jamiyat hayotining barcha tomonlarini, shu jumladan oilaviy munosabatlarni o'z domiga tortishga urinayotgan globallashtiruv jarayoni, har bir millat oldiga murakkab vazifa - o'z kelajagi hisoblangan yosh avlodni turli ma'naviy-mafkuraviy ta'sirlar ta'siridan saqlab qolish, milliy qiyofasining o'zida mujassamlashtiruvchi an'analari va milliy-ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylash vazifasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Ayniqsa, bu jarayon millatni davom ettirish asosi bo'lgan oilalar ma'naviy-ruhiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishga haratilgan harakatlar sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

Mazkur jarayonning mafkuraviy ta'sir o'tkazishga qaratilgan tomonlari mavjudki, ular bo'lajak oila egalari - yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga mo'ljallangan buzg'unchi g'oyalar va milliy urf-odatlarimizni zabun qilishga haratilgan yot "qadriyatlar" shaklida ko'zga tashlanmoqda. Mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning bu shakldagi ko'rinishlari o'zlarining asosiy e'tiborlarini milliy qadriyatlarimizning kelib chiqishi, shakllanishi, maqsadi va mazmun-mohiyatining faqat diniy tasavvurlar bilan bog'liq tomonlarinigina bo'rttirib ko'rsatishga, ularning dunyoviylik tomonlarini esa e'tibordan chetda qoldirishga qaratmoqdalar.

Ma'lumki, oilalar milliy ma'naviy qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib berish, ularni mazmun jihatidan boyitish, yoshlarni tarbiyalashda unchalik ko'zga tashlanmaydigan rasm-rusumla orqali tarbiyalashning asosiy vositasi sanaladi. Oila milliy qiyofani saqlab qolish, millat ruhini shakllantirish, insoniy va ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish va mukammal insonni tarbiyalashning haqiqiy o'chog'idir.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, biz "...ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni keng haror toptirishda, tobora kuchayib borayotgan, bizning milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan har qanday zararli ta'sirlar, buzg'unchi

g'oyalarga qarshi turishda, azaliy qadriyatimizni asrab-avaylashda oilani mustahkam tayanch deb bilamiz”.

To'g'ri, insoniyat tomonidan vujudga keltirilgan har qanday milliy ma'naviy qadriyat – an'ana, marosim, urf-odat, rasm-rusumlar o'z mohiyatiga ko'ra, diniylik va dunyoviylik xususiyatiga ega. Zero, ma'naviy-madaniy boylik sifatida qaratilgan milliy qadriyatlar ham vujudga kelishi jihatidan ko'proq diniy tasavvurlarga bog'liq holda vujudga kelgan. Zamonlar o'tishi bilan mazkur qadriyatlar o'zining dunyoviylik xususiyatlarini ham namoyon qila borgan va oilaviy tarbiyaning asosiy vositasiga aylangan.

Milliy urf-odatlarimiz o'tmish ajdodlarimizning nafaqat diniy tasavvurlari mahsuli va ma'naviy merosi sifatida keyingi avlodlarga o'tib kelgan, balki ular milliy mentalitetimizning tiklanish, rivojlanishi va mustahkamlanishida ham muhimrol o'ynagan. Shuningdek, milliy urf-odatlarimiz xalqimizning tarixiy, madaniy o'ziga xosligini mustahkamlashga, oilada yosh avlodni tarbiyalashning eng samarali vositasiga aylangan.

Agar islom dini bilan bog'liq bo'lgan milliy urf-odatlar va marosimlarning mazmun-mohiyatiga e'tibor bersak, ularning har biri o'zini musulmon deb hisoblovchi kishi uchun bajarilishi aniq bo'lgan, muayyan qoidalar va me'yorlarga ega bo'lgan dunyoviy hayot kechmishlari va xulq-atvor majmuasidan iborat ekanligini ko'ramiz.

Shuningdek, islomiy urf-odatlar va marosimlarning deyarli barchasi kishilarni, ayniqsa, yoshlarni insonparvarlik, xalqparvarlik, o'zaro hamkorlik, hamdardlik, hamfikrlilik, hayotiy faollik, ruh va tana tarbiyasi kabi axloqiy me'yorlar, tushuncha va tamoyillarni shakllantirishning eng katta samara beruvchi vositasi hamdir.

Demak, oilaviy tarbiya oldidagi asosiy vazifalardan biri – diniy deb qaraladigan urf-odat, marosim, rasm-rusumlarning nafaqat diniy tasavvurlar bilan bog'liq tomonlarini, shuningdek ularning dunyoviylik tomonlarini ham to'g'ri talqin qilib berishdan iborat bo'lishi kerak.

Milliy-ma'naviy qadriyatimizning dunyoviyligi uning ma'naviy-ma'rifiy tomonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Islomiy qadriyatimizning dunyoviy-ma'rifiy jihatlari ayniqsa, insonning tug'ilishi, voyaga etishi, oila qurishi va farzand tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan aqiqa (farzand tug'ilganligi bilan bog'liqmarosim), beshik to'yi, sunnat va nikoh to'ylari, inson hayoti bilan bog'liqbo'lgan mushkulkushod, mavlud, payhambar to'y va haj oshi kabi marosimlar; inson o'limi va xotirasi bilan bog'liq bo'lgan janoza, ta'ziya, kir yuvdi, etti, yigirma, qirq va yil to'lishi bilan bog'liq bo'lgan marosimlar; is chiqarish va ehson qilish bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusumlar va udumlar kishilar, ayniqsa, yoshlarga nafaqat inson hayoti bilan bog'liqbo'lgan bilim, tajriba, hayotiy malaka va ko'nikmalar beradi.

Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaga, ona mehnatiga jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbida yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul va noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarini vujudga keltiradi.

Oila muhiti - bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir.

Maqsadga muvofiq muhit ota-onalar bolalari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lmaydigan, bir-birlarini tushunadigan, hurmat qiladigan, bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo'la oladigan oilalarda tashkil topadi. Bolalarga ota-onalarning xatti-harakatlarigina emas, balki gapirayotgan gaplari, o'zaro savol-javoblari, uyga kelgan kishilar va qo'shnilar bilan bo'ladigan muomalasi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'z qudratli kuchga ega. "Yumshoq, mehribonlik bilan aytilgan so'z, shunday qudratli kuchki, uning bilan hech qanday jazo tenglasha olmaydi", - degan P. F. Lestgaft.

Oiladagi totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro'sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ruhiy muhitni yaxshiligiga va ularning kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bilan

munosabatda bosiqlik, xulosa chiharishda shoshmaslik, rag'batlantirish va jazolashda o'ylab ish tutish, ota-onalar obro'sida muhim ahamiyatga ega. To'g'ri, bolalarni ba'zan jazolash kerak, lekin bunda ularga axloq, odob mezonlari haqida tushuncha berish va ularni so'zsiz bajarish lozimligini ota-onalar talab qilsagina, ota-onaning obro'si bo'ladi. Ba'zi ota-onalar o'z bolalaridan talab qila olmaydi, natijada obro' ham bo'lmaydi.

Maqsadga muvofiq o'zaro munosabatlar va ota-onalarning bolalari bilan ma'naviy yaqinligi, bolalarning ichki dunyosini sezish, qiziqish va intilishlarini oldindan bilishi, g'amxo'rlik qilishi kabilar ota-onalarning obro'sini oshiradi.

Hozirgi ba'zi oilalarda ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi bosiqligi, vazminligi ularga bo'lgan hurmati, diqqat-e'tibori kam bo'ladi, natijada ota-onalar bilan bolalar munosabatlarida ko'ngilsiz voqealar sodir bo'ladi, oqibatda oilada ota-onalar obro'si pasayadi. Agar oilada ota-ona bilan bolalar o'rtasida o'zaro muloqot uchun qulay sharoit yaratilsa, ota-onalar obro'si bo'lsa, tarbiya uslublaridan o'rinli foydalana olsa, bunday oilada bolalar to'g'ri tarbiyalanadi va o'z fikr-mulohazalarini ro'y-rost aytishdan qo'rqmaydilar.

Oilada ota-onalarning bolalar oldida obro' qozonishi juda murakkab masaladir. Oilada ota-onalar buning uchun o'zlari to'g'ri, halol va adolatli bo'lishi shart. Ota-onalar o'zlarining xatti-harakatlari, bildirayotgan fikri, muomalasi hatto o'ziga mos ijobiy odatlari bilan bolalarini ishontira olishi ular obro'sining oshishida asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar bolalarining o'qishi, ishi, xulq-atvori yoki ba'zi yutuqlari uchun va'da qilsalar uni bajarishi kerak. Agar va'dani bajarish imkoniyati bo'lmasa, uning sabablarini bolaga dalillar asosida isbotlab bersalargina o'z obro'sini saqlab qolishi mumkin. Eng avvalo bo'lar-bo'lmasga va'da bermasligi ma'qul.

Oilada ota-onalar obro'si bo'lish uchun (ovqatda, kiyintirishda) ota-onalar hamma bolalarini teng ko'rishi lozim. Yana ota-onalar oilada kichik yoki nochor bo'alarini katta bolalar tan jazosidan himoya qilishi va ma'naviy jihatdan ularni quvvatlashlari maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotda ko'plab namunali va obro'li ota-onalarimiz ko'p. Agar ota-ona halol mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, bola ularni hurmatlashga majburdir. Ba'zan esa ishda juda yaxshi mutaxassis bo'lgan ota-onalar bolalariga namuna bo'la olmaydi. Natijada ular bilmagan holda shunday oilalarda ishyoqmas ko'cha bezori, erkatoylar etishadi. Nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklariga sherik bo'luvchi bolalarga ma'naviy ko'maklashuvchi ota-onalargina haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladi.

Bizningcha, ota-onalar o'zlarida quyidagi sifatlar bilan o'z farzandlariga namuna bo'lishlari lozim:

1. Ota-onalarning axloqiy jihatdan shaxsan namuna bo'lishlari;
2. O'zlariga topshirgan ishni ma'suliyat bilan bajarishlari;
3. Bolalar tarbiyasidagi ma'suliyat va burchini his qilishlar;
4. Mehnatda shaxsan namuna ko'rsatishlari;
5. Barcha farzandlarini teng ko'rishi;
6. Farzandlarining xarakter xususiyatlarini yaxshi bilishi;
7. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning turli, usul va vositalarni yaxshi bilishi hamda ulardan oqilona foydalana olishi;
8. O'z obro'sini oilada doimo saqlashi;
9. Farzandlarini doimo foydali mashg'ulotlar bilan band qilishlar;
10. Oila xo'jaligini mohirlik bilan boshqara olishlari;
11. Oila tarbiyasini ijtimoiy-iqtisodiy tarbiya bilan bog'lab olib borishi;
12. Ota va ona talablarida birlikning bo'lishi;

Oila, tarbiyaning asosi, makoni va poydevoridir. Bolaning kim bo'lib yetishishi, asosan, oiladagi muhitga – tarbiyaviy ta'sirga bog'liq. Oila tarbiyasining samarasi bevosita oilada ota-onalar obro'si va shaxsan namuna ko'rsatishlariga bog'liq. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u-bilig” asarida oilaviy tarbiya-bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy narsa ekanligini alohida ta'kidlaydi. “Mabodo, bolalarning xulq-atvori yomon bo'lsa, bunda gap bolada emas ota aybdor”, - deydi. Bu fikrdan har bir oilada ota-onalar o'z farzandlariga doimo

barcha sohalarda namuna bo'lishlari shart degan g'oyani uqish mumkin. Haqiqatdan ham, oila tarbiyasida ota-onalar obro'si va namunasi bolalarni to'g'ri tarbiyalashning manbai hisoblanadi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa-ko'ngul ozig'i, xushmuomala bo'lsa, -jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, ayol oila turmushida erning haqiqiy sodiq yo'ldoshi, bola tarbiyasida yaxshi va yomon sifatlarining tarbiyaviy ta'siri beqiyosligi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Xulosa qilib aytganda ota-onalar farzandlariga yaxshi xulqlari bilan namuna, ibrat bo'lishlari pedagogik asoslangan.

Zero oila har qanday jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Faqat rivojlangan va taraqqiy etgan jamiyatgina yosh avlodni asrab-avaylab, uning har qanday tomonlarga barkamol inson bo'lib etishmog'i uchun barcha moddiy, ma'naviy va maishiy shart-sharoitlarni yaratib bera oladi. Ana shunday holdagina yosh avlod o'z jamiyatini va o'z yurtini yuksaltirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qila oladi. Yosh avlod qadrlanmagan ijtimoiy jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi.

Kelajakni ishonib topshirish uchun yosh avlodning ma'naviy barkamolligi ta'minlanishi, u har tomonlarga sog'lom qilib tarbiyalanishi lozim. Agarda bola har tomonlarga sog'lomoilada, sog'lom ijtimoiy muhitda o'sib, sog'lomtarbiyachining qo'lida tarbiyalanmasa, u o'z elining munosib farzandi bo'lib voyaga yetadi. hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda oilaning hissasi kattaligini hisobga olsak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, oilalarda qadriyatarning borligi ham katta ahamiyatga ega.

II –Bob. Oilada bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillarning amaliy jixatlari

2.1. Bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi ma'naviy omillar

Prezidentimiz va xukumatimiz tomonidan nafaqat oilalar, balki hqariyalar manfaatlariga ham keng e'tibor qaratilayotganligi quvonarli holdir. Biroq ayni kunlarda bola tarbiyasi borasida oiladagi yosh ota-onalarning keksalar bilan fikrlari bir joydan chiqmasligi hollari ayni davr uchun xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan biriga aylanib bormoqda.

O'zlari alohida yashayotgan yosh oilalarda ko'pgina bobo va buvilar nabiralari tarbiyasidan, umuman yosh oila hayotidan chetlashtirilgan holatlarni ko'p kuzatish mumkin. Chunki, bunday oilalarda aralashuvlarga halaqit qilish sifatida qabul qilinadi. hatto, yosh ota-onalar orasida “qariyalar bolalarni shunday erkalatib yuborishadiki, keyin ota-onalari ularni qanday boshqarishni bilmay o'tirishadi” yoki “qariyalar o'zlarining eskicha, almisoqdan qolgan tarbiya usullari, bolalarga beradigan pand-nasihatlar bilan bolalarni zamondan orqada qoldirishi” – kabi mulohazalarni to'g'ri deb hisoblovchi ham yo'q emas. Bu nuqtai nazarga ayniqsa, o'zini progressiv deb hisoblovchi ota-onalar ko'proq berilgan bo'ladilar. Afsuski, ayrim oliy ma'lumotli, hatto pedagog ota-onalarimiz ham bunday mulohazalarga qo'shilishi mumkin.

Bola tarbiyasi – ancha murakkab masaladir. Ba'zan bir joyda yashaydigan oiladagi qaynona bola tarbiyasi borasida o'zining maslahatlari-yu, pand-nasihatlar bilan kelinning “joniga tegib ketgan”ligini eshitar ekanmiz, o'zimizcha o'sha oiladagi kelinga achinamiz. Lekin o'sha keksalari, qariyalari bor bo'lgan, boshqacha aytganda bir necha avlod vakillari birga yashaydigan oilalarning o'ziga xos afzalliklari borligini unutib qo'yamiz.

Shu o'rinda qariyalarimizning yosh avlod tarbiyasidagi hissasiga bir oz to'xtalib o'tishni lozim topdik. Biz istaymizmi – yo'qmi, yosh avlod keksalardan milliy madaniyatni, qadriyatarimizni, donishmandlik tajribalarini o'rganadi va meros qilib oladi. Avlodlarning o'zaro munosabati esa kichik avlod vakili uchun boy emotsional tajriba beradi. Xalqimizda azaldan mavjud bo'lgan “qarisi bor

uyning parisi bor” – degan hikmatli gap bekorga aytilmagan. qariyalari bor uyda yosh ota-onalar tashvishlanganidek, qariyalar tomonidan bolani “haddan tashhari erkalatish”ning o’rni unga mehr-muhabbat ko’rsatish, ibratli matallar, rivoyatlar, ertaklar va xotirotlar aytib berish bilan to’ldiriladi. Buning ustiga uyda nafaqadagi hariyalarning borligi ota-onasi ko’pincha ish bilan band bo’lgan bolalarning doimo kattalar (“o’zinikilar”) nazorati ostida bo’lishini ta’minlaydi. Begona tarbiyachilar, enagalar nazoratidan ko’ra, o’z buvisi yoki buvasi nazorati ostida bo’lishi bola uchun muhimahamiyatga ega.

hozirgi zamon oilalariga xos xususiyatlardan biri – ota-onalarning o’ta bandligi tufayli ota-ona va bolalarning o’zaro munosabatlarida bo’shliq, uzilishlarning yuzaga kelishidir. Oilada qariyalarning borligi esa aynan ana shu bo’shliqni to’ldiradi. Aksariyat oilalarda ota-ona va bola munosabatlari tizimidan ko’ra “bobo-buvi” va “nabira” munosabatlari tizimi kuchliroq va mustahkamroq rivojlangan bo’ladi. Chunki, bu ikki avlod vakillari psixologik jihatdan bir-birlarini yaxshiroq tushunadilar. Ba’zan o’rta avlod vakillarining “bir gapni qayta-qayta gapiraveradigan, ezma bo’lib qolganliklari” ni aytib shikoyat qilish holatini ham uchratamiz. E’tibor berilsa aynan shu toifa yosh ota-onalar farzandlarining mahmadonaligi, “ha deb savol beraverishi”dan ham shikoyat qiladilar. Mana shunday oilalarda keksa va kichik avlod vakillarining bo’lishi ayni muddao, ekanligini ta’kidlash lozim. Chunki, kichik avlod vakillari savol berishdan charchamaydi, keksa avlod vakillari esa javob berishdan erinmaydi. Shu o’rinda bolalar beradigan savollar va ularga beriladigan javoblarning psixologik jihatlari haqida ba’zi mulohazalarni hukmingizga havola etamiz.

Bolalarning qiziquvchanligi va bilish ehtiyojining qay darajada rivojlanganligiga harab ular beradigan savollarning harakteri va miqdori ham har xil bo’ladi. Maxsus tadqiqotlarda kuzatilishicha, 3-5 yoshdagi aqliy rivojlanganlik darajasi risoladagidek bo’lgan bola bir kunda 5000 martagacha bilish ehtiyoji yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni bola o’z atrofida sodir bo’layotgan voqea-hodisalar, narsalar haqida bir kunda atrofdagilar 5000ga yaqin savol bilan murojaat qilishi mumkin. Albatta, bolaning buncha miqdordagi bilish ehtiyojini qondirish har

qanday oilada ham to'liq amalga oshirilavermasligi tabiiy. Lekin bolaning bergan savollariga imkon darajasida qisqa va tushunarli bo'lgan javoblarini berish zarurligini ota-onalar, umuman kattalar bilishlari lozim.

Agar oila nuklear (ota-ona va farzandlargina iborat) oila bo'lsa kun bo'yi ish bilan band bo'lgan yosh ota-onalarning hammasi ham bolaning bergan savollariga javob berishga o'zlariga kuch ham vaqt ham topa olmaydilar. Oqibatda ko'pchilik bolalarning bilish ehtiyojlari qondirilishi o'rniga, "Katta bo'lganingda bilib olasan!", "Buncha ko'p savol beraverasan, bir pas jim o'tir!" qabilidagi inkor-javoblar bilan so'ndirib tashlanadi. Ehtiyoj qonuniyatiga ko'ra, har bir ehtiyoj qondirilgan taqdirdagina navbatdagi ehtiyoj yuzaga keladi. So'ndirilgan ehtiyoj esa qayta yuzaga kelmasligi mumkin. Bolalarining "hech narsaga qiziqmasligi"dan nolib gapiradigan ota-onaalar bolaning bunday befarqligi ko'p jihatdan ota-onasining yoki oiladagi kattalarning u bilan bo'ladigan munosabati va muloqot xarakteriga bog'liqbo'lishini unutmasliklari lozim. Shuning uchun bola beradigan savollarni imkon qadar javobsiz qoldirmaslikka harakat qilish lozim. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga ko'proq ertaklar aytib berish, she'r yod oldirish, musiqalarni qo'yib eshittirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunday tadbirlar ularga nutq va xotirani rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda bola tarbiyasi borasida jahon tajribasidan bir misol keltirib o'tmoqchimiz. Yapon ayollari bozor va do'konlardan biror narsa harid qilish uchun borganlarida bolasini o'zi bilan birga olib yuradilar. Bunda bola olamning turli-tumanligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish bilan birga jamiyat hayotiga qo'shilishni ham o'rgana boradi. hozirda yosh ota-onalarning ko'pchiligi band bo'lganligi sababli oiladagi qariyalar ana shu vazifani chin dildan ado etishlariga ishonsa bo'ladi. Demak, qariyalar nabiralarini o'zlari bilan olib yurishlari bilan birgalikda ularga turli hikoyalar, ertaklar, rivoyatlar aytib berib, ularning shaxs sifatida barkamol bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Yosh avlodni shaxsini shakllantirishda oilaviy munosabatlarni, ya'ni oilaning ma'naviy dunyosini takomillashtirish uchun unga zarur ruxiy xotirjamlik, ibratli ruxiy munosabat, o'zaro totuvlik yaratilgan bo'lishi zarur. Oilaviy munosabat –

ya'ni ota-onalar o'rtasida o'zaro munosabatda xamjixatlik, mehr-oqibat, o'zaro xurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga hamxo'rlik mavjud bo'lsa bunday muomalamunosabat bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Ular o'z farzandlariga chinakkam baxt va quvonch qadya etadilar.

Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, mayllari, extiyojlari, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, oilaning inoq, axil turmush kechirishlariga, oilaviy munosabatlarning mustaxkam bo'lishiga puxta zamin tayyorlaydi.

Muayyan darajada shart sharoitlarning mavjudligi, ota-onaning o'zaro birlarini tushunib turmush kechirishlari, maqsad va vazifalardagi birlik, yuzaga keladigan ziddiyatlarni birgalikda bartaraf eta olishlari mustaxkam oila muhitini shakllantiradi. Natijada esa, yosh avlodni mukammal shaxs bo'lib shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi.

Darxaqiqat inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Xususan bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi.

Ana shulardan kelib chiqqan xolda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning yosh psixologik xususiyatlari, ijtimoiy va tabiiy omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

Ota-onalar bolalarning yosh psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Masalan: 4-6 yoshli bolalarning organizmida qanday o'zgarish va tashqi muhit ta'sirida qanday o'zgarish ro'y beradi..! yoki 11-12 yoshli bolalarning hatti-harakatida keskin o'zgarishni kuzatamiz, ba'zi ota-onalar «Falonchi bilan urishib keldi», «qaysar bo'lib qoldi», «Bir gap gapirsangiz, o'nta qaytaradi», «Aqlli, esli-hushli bola edi, uy ishlarida yordam berardi, to'rtinchi sinf bo'ldi-yu xuddi uni almashtirib qo'yganday...» va hokazo gaplar qulog'imizga chalinadi. Nima uchun?!.. Bu yoshdagi barcha bolalarda shunday o'zgarishlar kuzatiladimi?

Bu yoshdagi aksariyat bolalar ulg'ayishganini, mustaqil bo'lishganini, qo'llaridan ko'p narsa kelishini ko'rsatishga harakat qilishadi. Bunday holatni bolalardagi yosh psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda tarbiyalanayotgan bolalarda ko'rish mumkin.

Bu yoshda bolalar organizmining endokrin sistemalari yaxshi ishlashi natijasida modda almashinuvi, ichki organlar va tananing rivojlanishi jadallashadi. Bo'y tez o'sadi, shu bilan birga barcha organizmlar ham o'sadi, lekin yurak va yurak qon tomirlari sistemalari o'sishda ortda qoladi, bu esa qon bosimini pasayishiga, kam quvvatlikka ba'zan esa kamqonlikka olib keladi. Bunday holat ko'proq kunning ikkinchi yarmida seziladi.

Bu 11-12 yoshli bolalarda kuzatishimiz mumkin bo'lgan yosh psixologik xususiyatlarning bir qismi xolos. Shunday ekan, xar-bir bolaning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda e'tibor bilan tarbiyalamog'imiz lozimdir. Buning uchun oila qanday bo'lmog'i lozim?

Ma'lumki oila – ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruxning ko'rinishi. Chunonchi, uning a'zolarini harindosh urug'chilik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob axloq umumiyligi, ma'naviy extiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi.

Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik – bu oiladagi quvonchni, xamjixatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir degan xulosaga keladi. Muallif oilaning yo'nalishiga harab ikki toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi:

Ijtimoiy – ilg'or yo'nalishdagi oila.

Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila.

Birinchi toifaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bundan oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq printsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi, shuningdek xar tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali (yuksak orzu timsoli) nazarda tutiladi.

Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga etgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxanada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan qiziqishlarni namoyish qiladilar, shuning bilan bu narsaga o'z farzandlarida ham xavas uyg'otadilar.

Oilada goxo bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda xamjixatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, qimmatbaxo

materiallar har-xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

Ikkinchi toifaga mansub oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi.

Oiladagi turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyani boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi. U yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli xech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Er-xotinning yoki boshqa voyaga etgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari (nuqtai nazarlari) ko'pincha ularning fe'l atvor xususiyatlariga tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-harshi yo'nalishda bo'ladi. Burch xissigina muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolarining o'zaro birlashtirib turadi.

Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish kuchi kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

Asta-sekin tug'ishganlarga hamxo'rlik, aka-uka va opa-singillik mehri, ota-onalarga muxabbat va shavqat tuyg'ular namoyon bo'lib boradi. Agarda oilalarda turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruxiy dunyosida kekkayish, pismiqlik ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, ma'suliyatsizlik, dimoqdorlik illatlari unib chiqadi.

Oila boshlig'i xisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat e'tibori ahloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan xolda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xislarini zamon ruxiga mos shaxs fazilatlarini shakllantirishga haratilgan. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, muloqozalar o'zaro tinchlik, o'zaro hurmat ruxiga bo'ysundiriladi.

Oilaviy munosabatlarning ushbu ko'rinishda turli yoshdagi o'g'il-qizlarga, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagog ta'sir o'tkazish sistemasi o'z xususiyati bilan ajralib turadi.

Unday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sehri yashiringan xolda bo'ladi.

Shu boisdan tasodifan voqea hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, yo rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda daslabki dilkashlik, xushmuomalalik, shaxsiy xatti-harakatda va muloxaza yuritishda mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan xolda yangi norma va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olishlik kabi muhimfazilatlar paydo bo'ladi.

Oila munosabatlarining yana bir turi «Avtoritar» deb atalib, bunda ota-onaning obro'si xal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shaxslararo teng xuquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik, o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi.

Oila a'zolarini yurish-turish, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Ota-onaga tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli – jazolash xisoblanadi.

Biroq, onda-sonda rag'batlantirish usulidan foydalanilganda ham, u bolaga ma'naviy ozuqa bermaydi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr xissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlar ularni qoniqtirmaydi, natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlik, xavotirlik kabi ijtimoiy norma va qoidalarga qiyinchik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruxiy dunyosida simpatiya (yoqish), empatiya (xamdardlik), samimiylik, xayrixoxlik kabi yuksak insoniy xis-tuyg'ular juda nursiz ifodalaniladi.

Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi. Shuningdek, oila ijtimoiy tarbiya o'chog'i tariqasida o'z a'zolari ruxiyati va ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazadi: ma'lumki, odamiylikning durdona urug'lari xuddi shu tor muhitda murg'ak qalbli bola tabiatiga turli negiz asosiga quriladi: iqtisodiy, mafkuraviy xis-tuyg'u, xissiyot, axloqiy, aqliy, harindosh-urug'chilik, yaqinlik, do'stlik va birodarlik kabilar. O'z-o'zidan ma'lumki, oila qaysi toifaga mansubligidan qat'iy

nazar o'z a'zolari ongiga iqtisodiy, mavkuraviy, axloqiy, aqliy, ifodaviy, xissiy jixatdan ta'sir o'tkazadi, ya'ni inson shaxsini shakllantirish vazifasini o'taydi. Oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish xikmati – bu oila a'zolarining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, xar-bir shaxsning xususiyatidan kelib chiqqan xolda rejalashtirish, goxo sayr uyushtirish, birgalikda oila davrasida madaniy xordiq chiharish, xo'jalik yumushini bajarish va boshqalardir.

Biroq ayni kunlarda bola tarbiyasi borasida oiladagi yosh ota-onalarning keksalar bilan fikrlari bir joydan chiqmasligi hollari ayni davr uchun xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan biriga aylanib bormoqda.

Albatta, ta'kidlab o'tish lozim, qariyalar haqida, ularning yosh avlod tarbiyalashdagi o'rni haqidagi dono aytganlaridan ziyoda etib biron bir gap aytish biz uchun noo'rin va bunga da'voyimiz ham yo'q. Lekin biz mazkur maqolada shu sohadagi ayrim psixologik tomonlar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Hozirda yosh ota-onalarning ko'pchiligi band bo'lganligi sababli oiladagi qariyalar ana shu vazifani chin dildan ado etishlariga ishonsa bo'ladi. Demak, qariyalar nabiralarini o'zlari bilan olib yurishlari bilan birgalikda ularga turli hikoyalar, ertaklar, rivoyatlar aytib berib, ularning shaxs sifatida barkamol bo'lib shakllanishiga yordam berar ekan.

Bolalarni o'zbek urf –odatlarini, udum an'analariga bog'langan holda mehnatga tayyorlash muammolari bozor iqtisodiyoti kun tartibining dolzarb masalalaridan biridir. Ma'lumki, o'zbek oilalarida bolalarni ma'naviy, aqloqiy tarbiyalashda mehnatning roli boqiydir. Ayniqsa, xalqimizning jahonga mashxur bo'lgan allomalari Beruniy, Ibn Sino, Imom al Buxoriy, Yassaviy, Ulug'bek va boshqa o'zbek xalq mutafakkirlarining yoshlarimiz ta'lim tarbiyasida olib borgan ishlari beqiyosdir.

Bolalarga iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda o'zbek xalq an'analarini bilan bog'liq juda ko'plab ibratli ishlar mavjud.

hozirgi kunda yosh avlodni oilaga tarbiyalashdek muhimmasala iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tomonlari moddiy va ma'naviy jihatlari kuzda tutiladi.

Bular o'z navbatida:

1. Iqtisodiy tamoyil – oilaning kundalik moddiy ehtiyojini halol mehnatidan topilgan daromadlari va davlatning oilaga ko'rsatgan iqtisodiy asosi.

2. To'liq oila mablag'i.

3. Qo'shimcha daromad mablag'i.

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishib respublika hayotida keskin o'zgarishlarni boshlab yubordi. Jumladan, ta'lim sohasida ham, ta'lim sohasidagi hozirgi kun talablariga binoan bolalarni mehnatga tayyorlash, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, iqtisodiy faoliyatga oshirish hozirgi zamonning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohasining umumiy ahamiyatli tomoni shundaki, maktablarda o'quvchilarni iqtisodiy mehnat faoliyatini kuchaytirish muammolarini xal qilishi lozim. Bunda sinf va sinfdan tashkari ishlarda foydalanish uchun iqtisodiy mazmundagi masalalar taklif etiladi.

Tarbiya ikki tomonlama o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, faoliyatning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarini, ya'ni tarbiyachining, shuningdek, ota-onalarning bolalariga, ularning xulqlariga bo'lgan ta'sirini ifodalaydi.

O'quvchilarni iqtisodiy - mehnatga muhabbat oiladagi ijtimoiy muhit bola tarbiyasida eng katta rol o'ynaydi. Bunda boshlang'ich sinf tarbiyachisidan tortib, barcha insonlar va oila a'zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning axlokiy shakllanishida mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'z xalqining an'analarini hurmat qilish, o'z Vataniga sodiqlik, jasurlik, sadoqat kabi tarbiya ko'rinishlari bilan kamol topadi.

Xalq pedagogikasida yosh avlodni iqtisodiy mehnatga tarbiyalashning turli-tuman yo'l va usullari, vositalari, manbalari mavjuddir. Bundan yo'l va usullar rang-barang bo'lib, u faqat tarbiyachining pedagogik qarashlariga bog'liq bo'lmasdan, balki bolalarning ham individual xususiyatlariga ham asoslangandir. Bu yo'l va usullar xalq ijodi manbalarida o'z ifodasini topgan.

Insonning iqtisodiy mehnat negizida yosh avlodning tarbiyasi muayyan qonun-qoidalar asosida yotadi. Shu bois ularga ta'lim-tarbiya berishda iqtisodiy mehnatning roli kattadir.

Kishilar asrlar davomida iqtisodiy hodisalarni kuzatib, ularni umumlashtirgan holda turli fikr-mulohazalar, ilmiy harashlarni olg'a surganlar. Bu harashlar va fikrlar jamlana borib, iqtisodiyot ilmi yuzaga kelgan. Iqtisodiy mehnat taqsimoti usib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiya yo'lidagi mehnati muhimahamiatga ega bo'lib, mehnat va iqtisodiy ta'lim-tarbiya turlariga ajralib borishi, mehnat turlarining to'xtovsiz ravishda yangidan paydo bo'lishidir.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiya yo'nalishlari quyidagilar jumlasiga kiradi:

- o'quvchilarni eng sodda iqtisodiy bilim asoslari bilan qurollantirish,
- iqtisodiy savodxonlik darajasiga ko'tarish,
- o'quvchilarni o'quv-bilish imkoniyatlaridan kelib chiqib zarur iqtisodiy ehtiyoj va qobiliyatlarini shakllantirish,
- o'quvchilarda ishbilarmonlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, jonkuyarlik, rostgo'ylik kabi iqtisodiy shaxsni shakllantirish,
- o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonida ularga psixologik yondashish.

Bundan chiharilgan xulosa shuki, bola tarbiyasida iqtisodiy ta'lim-tarbiya umuman universal xarakterga ega bo'lib, u bola tarbiyasida etakchi mexanizm asosida qo'llaniladi. Etakchi mexanizm ehtiyoj manfaatini yuzaga keltiradi. Ehtiyojdan individual manfaat kelib chiqadi. Bular o'z navbatida quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Individual manfaat - ayrim kishilarning yoki alohida oilaning yaxshi daromad ko'rishidan iborat.

Yaxshi yashash uchun bajarilayotgan ishdan ko'proq foyda chiqishi.

Umumjamiyat foydasi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiya deganda o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarning, o'quvchilar jamoasi va atrof – muhitdagi kishilarga ehtiyoj rejalari va iqtisodiy sifatlari bilan bog'liqbo'lgan muntazam ravishdagi ta'siri tushuniladi.

Kichik bolalarda bozor iqtisodiyoti mehnat unimdorligini oshirishni bola tarbiyasida tutgan omillaridan biri mehnat tarbiyasi hisoblanadi. Mehnat bozordagi taklif ham narx nisbati, narx – navo, sotish va sotib olish, yo'llari amalda ko'zda

tutiladi. Shuning uchun ham bolalarga doimiy farovon yashashga intilish maqsadida bozor iqtisodiyoti roli mukammal tushunchaga ega bo'lmog'i lozimdir.

Birinchisi, o'quvchilarda iqtisodiyotning sir-asrorlarini o'rganib, ularning iqtisodiy savodini chiqarish, ularning bilim saviyasini oshirish.

Ikkinchisi, iqtisodiyotga oid amaliy qoidalarni: qanday iqtisodiy yo'l tutish, iqtisodiy vositalardan qanday foydalanish, iqtisodiy ma'rifat yo'lida nimalar qilish kerakligini o'rgatishdir.

Hozirgi kunda bola tarbiyasida bozor iqtisodiyotiga o'tish, ularni yangicha fikrlash, ishlash va yashashga o'rgatadi. Bozor iqtisodiyoti har bir inson oldiga oddiy ammo qattiq talab qo'yadi: Farovon yashash, samarali mehnat qilish, lekin buning eng asosiysi mukammal bilim olish, yaxshi o'qish, o'rgangan bilimlarni esa Respublikamizning farovon yo'liga sarflash. Ammo shunga qaramay hozirgi kunda ham har bir maktablarda bu narsaga e'tibor qaratilayotgani yo'q.

Iqtisodiy tarbiya deganda, maktablarning boshlang'ich sinflaridan boshlab, mehnat fanining pedagogik, psixologik asoslarining ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berilishi lozim. Bu o'rinda iqtisodiy tushunchalarni bayon qilish ularni oydinlashtirish masalalari amalda tutilishi lozim.

Bizningcha, o'quvchilarda o'rganilayotgan iqtisodiy dalillar, voqea-hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabat hissini tarbiyalash uchun o'qituvchi o'quv jarayonining tarbiyaviy yo'naltirilganligini oshiruvchi o'quvchilar jamiyatdagi yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarni ongli ravishda tushunib etishlariga ko'maklashuvchi pedagogik shart-sharoitlarni bilish va ularga tayanib yashash zarurdir.

O'quvchilarning iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy muammolari tarbiyasi, shuningdek, ularda ehtiyotkorlik, tejamkorlik, ishbilarmonlik, rejalilik kabi hislatlarni rivojlantirish xususiyatlarini ochib beradi.

Insonning taqdiri, hayotdagi yutug'lari, uning dunyo qarashiga avvalambor oilada asos qo'yiladi. Oila–ilk g'oyaviy tarbiya manbai sifatida katta ahamiyatga ega. Tarixan o'g'il – qizlar ota–onalaridan o'zlashtirgan dunyoharashini o'z zamonasiga moslab, o'z dunyo qarashlariga shakl, mazmun berib uzlashtirishi

meros tarzida o'tib keldi. Dunyoqarashning birinchi–milliyligi tufayli avlodlar orasida xamfirklik o'zaro ishonch, izzat, maqsad birligi, samimiylik tantana qilgan. halollik, rostgo'ylik, or–nomus, sharmu–hayo, mehru–oqibat, mexnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun, bugungi o'zbek oilasining ma'naviy g'oyaviy tarbiyalovchi funktsiyasini har tomonlama takomillashtirish–kun tartibida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu vazifa o'z navbatida bolalarni vatanimizning, xalqimizning tarixiy, madaniy va ma'rifiy merosi asosida tarbiyalashni taqozo etadi.

Ota-onalar va farzand munosabatlarida oila tarkibi ham ahamiyatli xisoblanadi. Chunki ta'lim mazmuni va uslublari ungi mos tarzda tanlanadi. Oilaning tarkibi: to'liq oila, otasiz (onasiz) o'sayotgan farzand. Yana qo'shimcha omil otasi (onasi) yo'q yoki ular alohida yashayotgan bo'lishsa, barcha sohalar kabi ma'naviyat va vatanparvarliklarni shakllantirish mazmuni ham o'zgacha bo'ladi. Birinchi galda oila ota (ona) ning yo'qligini «og'riqsiz» qabul qilishga yo'naltirilishi lozim. Ayni paytda bu mazmun farzandning jinsiga ham xos holat.

Ta'kidlash joizki, to'liq oilalarda nafaqat ota-onalar va farzand munosabatlari, balki ota-onalar (er-xotin) ning o'zaro munosabatlari ham farzandlarning tarbiyasida ayrim hollarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Oilada kim hukmron? Otami - onami? Aslida kimligidan ko'ra bu xolatning mazmuni muhimroq. Masalan, ota onaga o'z xukmini «Meni aytganim bo'ladi», «Mendan beso'roq nimaga bunday qilindi?» kabi mulohazalar bilan o'z farzandining ma'naviy-axloqiy, jismoniy, ruhiy rivojlantirishiga nisbatan bildirilgan mulohaza, taklifga, qilingan harakatga nisbatan rad javobini berilishi ota-onaning farzand istiqbolini emas, balki o'z hukmronligining eng to'pori usulda bayon qilishga haratilganligidir, ya'ni bu xolatda ota (ona) uchun o'z hukmini o'tkazish istagi farzand tarbiyasidan ko'ra muhimroq ko'rinadi.

Bu holatning aksi sifatida bolalarning sayi-harakatlari, qiziqishlari rag'batlantirilishi, ya'ni, bolalarning ota-onaning qo'llab-quvvatlashini his etishi bolaning ruhiy-qiziqish xotirjamligini ta'minlaydi. Bu xar qanday faoliyatni o'zlashtirish jarayonini ishtiyoq bilan kechishini ta'minlaydi. Biroq bu holatda ham

muayyan me'yor bo'lishi lozim . Uning ko'pligi bolani erkato'y, o'zini o'ylovchi bo'lishi, kamchiligi esa ruhiy kelishmovchilikni kelib chiqishiga olib keladi.

Oilada bolalarni tarbiyalash jarayonini pedagogik tashkil etish uchun aloxida tashxis, andoza yo'q. Shunday bo'lsada, kuzatuvlar, taqlillar asosida oila sharoitida bolalarda tarbiyasini tashkil etishda ota-onalar quyidagilarga e'tibor berishlari muhim:

- oilaviy ta'lim-tarbiyaning qulaylik tomoni shundaki, unda asosan bolalar bilan individual ishlanadi. har bir bola o'ziga xos. Aynan shuning uchun ham ota-onalar o'z farzandlarining xatti-harakatlari, qiziqishlaridagi individualliklarga monand « rahbarlik»ni yo'lga qo'yish joiz

- ota-onalar nafakat o'z farzandlarida ma'naviyat va vatanparvarliklarni ustirish, balki butun oilaning ehtiyojlarini muttasil oshirib borishga intilishlari lozim. Chunki, oila a'zolarining qiziqishlari dialektik uzviylikda, o'ziga xos tamoyillar asosida rivojlanib boradi. Bu omil bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

- ota-onalar o'zlarining bolalariga nisbatan munosabatlari, xatti-harakatlari «pedagogik faoliyat»laridagi o'ziga xos ta'limiy samara bergan pedagogik shart-sharoitlar, uslubiy yondoshuvlarni taqlil etib borishlari, ularni muttasil boyitib borish choralarini ko'rishlari lozim.

- ota-onalar o'zlarining pedagogik bilim va uslubiy mahoratlarini muttasil oshirib borishlari, unda asosiy omil sifatida madaniyat va san'at, jamiyat hayotidagi taraqqiyotlaridan foydalanishlari hamda bola tarbiyasida samarali vositalarni, shakl va uslublarini hollash jarayonini tashkil etishlari lozim.

- oila sharoitida bolalarda ma'naviyat va vatanparvarliklarni shakllantirish jarayonini uzviy, uzluksiz va muntazam bo'lishini ta'minlash, tanlangan tarbiya usulini yangi mazmun bilan boyitib borish maksadga muvofik.

Aytib o'tilgan uslubiy yondoshuvlar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tavsiya xarakteriga ega bulib xar bir oila (ota-ona) farzandlarida tarbiyaning o'ziga xos maktabiga ega bo'lishlari lozim.

Oilaviy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ota-onalarni katta qismini televideniye orqali bolalar tarbiyasiga yordam berish maqsadida turli ko'rsatuvlar tashkil etish, o'z oilasida ayrim samaralarga erishgan ota-onalar, bobo-buvilarning tajribalarini ommalashtirish va shu kabi uchrashuvlar tashkil etish mustaxkam oila yilida dolzarb muammolardan biridir.

Oila tarbiyasidagi bolalar xayotini tugri uyushtirish, ularni vaktidan tugri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniksa ota-onalarning oilada mexnatsevarligi bilan farzandlarini xam kasb va xunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan.

Ota oilada o'z farzandlariga xar tomonlama yurish-turishda, nutk odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va xaqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib «Qudatg'u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolaning ma'suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda farzandlari hulq atvoriga harab ota-onalariga baho berishni aytib ularni ogohlantiradi.

Mirzo Ulug'bekning harshlarida bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muxim o'rin egallaydi. Shunday ekan, avvalambor bola tarbiyasida oila muhitini to'g'ri tashkil qilish darkor.

Unsurul Maoniy Kaykovus «Qobusnoma» pandnomasida o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir» deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e'zozlashga, mexr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Ota-ona o'z farzandi uchun hatto o'limga ham tayyorligini ta'kidlaydi. har bir farzand og'il va dono bo'lsa, ota-ona mexr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikoxdan oldin uylanmoqchi bo'lgan qizini ko'rmog'i, uylanadigan qizining bokira bo'lmog'i hamda to'rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va to'rt narsada, husnda va jamolda, hulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligini, ta'kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega.

Davoniyning fikricha: «Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan hulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, eyish-ichish, o'z qilmishi uchun ma'suliyatni sezish, shirinsuxand bo'lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim». Rudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotda ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Chunonchi ruboiylari zamonasidagi aksariyat odamlar, xatto ma'rifatli zotlar ham farzardlarining tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan harab, donishmandning bolasi joxil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi.

Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari albatta ota-onasidir. Buning uchun oila muxitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro xurmat bo'lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishi mumkin bo'ladi. Bolalarga oilada ta'lim-tarbiya berish jarayonida, kerakli o'rinlarda sharq

mutafakkirlarining asarlarida berilgan fikr mulohazalaridan oqilona foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.2. Oilada bola tarbiyasiga ma'naviy psixologik muhitning ta'siri

Insonning ma'naviy jihatdan kamol topishiga oila muhim rol o'ynaydi, chunki oila ikki muhim vazifani bajaradi –farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berish.

Ota-onalar bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab unga sog'lomo'sish, rivojlanish va xulqini shakllanishiga yordam beruvchi ijobiy odatlarni tarbiyalash, ularga axloq madaniyatini shakllantirish, ularga umumiy qoidalarni tushuntirib berish jumladan, uyda, bolalar bog'chasida, maktabda, ko'chada, jamiyat joylarida qanday tutish kerakligi haqida aytib o'tishi shart. O'zidan katta va tengdoshi bilan muomala madaniyatini o'rgatish, kattalarni hurmat qilish, ular bilan sizlab gapirish kerakligi haqida aytishsa foydadan xoli bo'lmaydi.

Oilada o'g'il farzand voyaga etgandan keyin har bir ota o'z bolasiga erkakning vazifasi nimadan iborat bo'lishi ya'ni oilani ma'naviy, iqtisodiy qo'llab quvvatlash, ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo'lish, oila mabodo xavf-xatarga yo'liqsa qalqon bo'la olish va umuman oila a'zolariga g'amxo'r bo'la olishni tushuntirib berishi lozim.

Agar oilada qiz voyaga etsa onasi unga ayolning vazifasi nimadan iborat ekanligini ya'ni oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularni oq yuvib, oq tarashi, erkakning olib kelgan oziq-ovqatlarini pishirishi, mehmon kutish va eng muhimi er va bolalarini ishga va o'qishga kuzatish, kutib olishni hayotiy misollar bilan aytib bersa nur ustiga nur bo'ladi. Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Farzandlarning bilim olishdagi yutug'i, axloqi, sog'lig' darajasi ko'p jihatdan oilada qaror toptirilgan rejimiga bog'liq.

Ota-onalar o'zlari ham ana shu tartibga amal qilib, namuna bo'lishlari zarur.

Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro samimiyat, hamjihatlik, mehru oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik qilish kabi munosabatlar farzand tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Ota-ona har narsadan urush-janjal chiqarib, farzandlari oldida bir-birini so'kib, qarg'ab hurmatsizlik qilsa, bu farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq, keyin „Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan maqolni ham esdan chiharmaslik lozim. Donolarimiz bekorga aytishmagan: “Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka, xayr ketadi”: Oilaviy janjallar xonadon muhitini buzadi.

Yana muhimvazifa ota-onalar bosh tarbiyachilar sifatida va farzandlariga avlodlarimiz tarixi, ularning qahramonligi, jamiyatdagi obro'-e'tibori haqida ehtiros bilan gapirib bermog'i va shu asosda yoshlarda Vatan tuyg'usini uyg'otishi lozimdir.

Dono halqimiz aytganidek, “Inson o'zining etti avlodini bilmog'i kerak”. Bolalikda tarbiyalangan vatanparvarlik hissi insonni hech qachon tark etmaydi. Shu bois ota-onalar bolalarida milliy qadriyatar asosida vatanparvarlik hislarini tarbiyalash tamoyillari ustida ishlamoqlari kerak. Bunda yashab turgan muqaddas zaminimiz, uning quyoshi, suvi, havosi, bog'i rog'lari, mehmondo'stligi va insonparvarlik bola qalbini cho'lg'ab olmog'i lozim. Buning uchun ota-onalar bolalariga xalq pedagogikasi janrlarida talqin etilgan ertaklar, hikoyalar, qo'shiqlardan foydalanish kerak.

Ota-onalar o'z farzandlari bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayr qilishlari ham yaxshi natija beradi. Ular farzandlarining tabiatdan bahramand bo'lishdan tashhari, ona vatanga bo'lgan muhabbatini, yashab turgan ona diyori go'zalligini tabiat ne'matlarining qadriga etishi, ularni avaylab –asrashni farzandlarning ongiga singdirib borishlari lozim.

Xullas, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor bilan harasa, ota-onalik burchini ado etsa jamiyatning rivojlanishga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladi natijada barkamol inson shakllanadi.

Dunyo taraqqiyoti insonlar tomonidan kashf etilgan yangiliklar bilan ta'minlanadi. Shu kashfiyotlarni eng buyugi – bu oila bo'lsa ajab emas. Zero, oila u qaysi millat, qaysi davlatga oid bo'lishidan qat'iy nazar aynan mana shu millatni, mana shu davlatning hususiyatini o'zida mujassam etadi.

Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning «... bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaxo ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod xamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi», - degan fikri ayni muddaodir. Shuning uchun ham oila insoniyatning ilohiy va mo'jizaviy kashfiyotidir.

O'zbek xalqining madaniyati tarixida Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani alohida xurmat, ehtirom ila tilga olinadi. Unda ma'naviyat, madaniyat, axloqiy-estetik munosabatlarning klassik namunalarini ko'rishimiz mumkin: Oilaning har bir a'zosini o'z munosabat uslublari, xatti-harakat tamoyillari bor. Ular oilaning har bir a'zosi, har bir vaziyat uchun alohidalik, o'ziga xoslik kasb etadi. Otabek – Kumush, Otabek – Yusufbek Hoji, Otabek – Qutidor, Otabek – Zaynab munosabatlari bunga misol bula oladi. Munosabatning har bir vaziyatida ma'naviy namuna mavjud. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar, uni bolalarda ma'naviyatli qilib tarbiyalashda «O'tgan kunlar» senariysini andoza qilib olish mumkin .

Oilada barkamol shaxs tarbiyasiga zamin yaratishda ota-onaga nisbatan bobobuvilarning o'rni ko'proq. Mirzo Ulug'bekni buvisi Saroymulkxonim nabirasini buyuk olim, ma'naviyati yuksak darajadagi inson va davlat arbobi sifatida rivojlantirishida muhim o'rin tutgani tarixdan ma'lum. Madaniyat tarixida yuksak pog'onalarni zabt etgan buyuk shoirlar A.S.Pushkinni enagasi, Sergey Esenin va hamid Olimjonni buvisi o'zlarining ertaklar olami bilan nabiralarni madaniyat gulshaniga yo'llaganlar. Bunday misollarni mashxur yozuvchilar, xofizu sozandalar, aktyorlar, rassomlar xayotlaridan misollarni yuzlab keltirish mumkin.

Oila sharoitida bolalarda ma'naviyat va vatanparvarliklarni rivojlantirishda ota-ona va farzand munosabatidagi mazmun har doim bosh omil hisoblangan. Bu jarayon shu darajada tamoyillarga boyki, shuning uchun uni ijtimoiy-pedagogik, psixologik, tarixiy-falsafiy nuqtai nazarda tadqiq etish lozim.

Birgina misol. Ota-onaning o'z farzandini individualligini inobatga olmagan holda tinimsiz nomaqbul ko'rsatma berishi (qachon va qanday teleko'rsatuv ko'rish lozimligi, kim bilan, qachon va qancha vaqt qanday o'yin o'ynashi, qanday

rangdagi, qanday shakldagi kiyim kiyishi) bolaning tabiiy moyilliklariga mos tushmagan taqdirda unda dunyoharashni shakllantirishda «sinish» yuzaga keladi, ya'ni bolaning tasavvurida sun'iy tarzda, majburiy o'zlashtirilgan, anglanmagan tushuncha va tasavvurlar tarkib topib boradi. Biroq bu tasavvur dastlabki aniq ?olat yuzaga kelishi bilanoq yo'q bo'lib ketadi.

Oila sharoitida ota-onalar alohida e'tibor haratishi lozim bo'lgan muhimjihatlardan biri bu – atrof-muhitni, olamni, shu jumladan oiladagi mikromuhitni bola tomonidan qiziqish bilan idrok etish ma'naviyat va vatanparvarliklarni rivojlantirishining belgilovchi omilidir.

Ota-onalarning bu boradagi faoliyati uch yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish– ota-onalar farzandlarida ma'naviyat va vatanparvarlikni rivojlantirishi uchun qulay oilaviy mikromuhit yaratishlari lozim.

Ikkinchi yo'nalish – ota-onalar o'z farzandlarining faoliyatlarini kuzatib, lozim bo'lgan vaziyatlarda bu jarayonga ma'lum ijodiy o'zgartirishlar kiritish, bu jarayonni pedagogik jixatdan boshqarishlari lozim.

Uchinchi yo'nalish – bu bevosita ota-onalarning o'z xatti-harakatlari, faoliyatlari, estetik qiziqishlari, bilan bolalarini uz ortlaridan ergashtira olishlari, ya'ni o'rnak, ibrat bo'lishlari lozim .

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, kup hollarda ota-ona va bola munosabatlarida ta'qiqlovchi ko'rsatmalar ustuvorlik qiladi. Bu jarayonda bir qator noto'g'ri harorlar qabul qilinadiki, uning zampirida pedagogik o'quvsizlik, ta'bir joiz bo'lsa, savodsizlik yotadi. Aslida, ota-ona o'z farzandiga ta'qiqlab qo'ygan narsasini o'zi xotirjam bajaradi. Masalan, uzoq muddat davomida televizor ko'radi, bir-biriga, shu jumladan farzandlariga qo'pol muomalada bo'ladi, qo'shnisiga yolg'on gapiradi va hokazo.

Axloqiy jihatdan xunuk bu holatlar, bevosita ma'naviyat va vatanparvarliklarni to'g'ri rivojlantirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, taqlid bolalar faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ota-onalarning faoliyatlarida, bolalarga nisbatan munosabatlarida haqqoniylik, ob'ektivlik bosh

mezon bo'lmog'i lozim. Mu'imi, ular nimaiki qilsa yoki bajarishsa, bola ongida ijobiy, ijodiy xis hosil qilsin.

Oilaviy ta'lim- tarbiyada oilaviy psixologik ruxiy holatini yaratish barcha yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlarning asosiy shartidir. Amaliyotda ota-ona va farzand munosabatlarida ko'p uchraydigan oddiy maishiy holatni taqlil etib ko'raylik. Birinchi xolat, ota-onalar, ayniqsa, onalar o'z farzandlariga salbiy extiroslarini «izhor etadilar», «sochadilar». Ayrim hollarda tushinarsiz holatlar yuzaga keladi. Faraz qilaylikki, uyingizga mehmon keldi. Siz uning farzandiga alohida iltifot ko'rsatasiz. O'z farzandlaringizdan «charchash» holati yuzaga keladi. Bu vaziyat farzand tarbiyasida muxim ahamiyat kasb etadi.

Ota-ona va farzand munosabatlarida «buyruq, topshiriqlar»ning bir xilligi, ya'ni ota-onalarning o'z farzandlariga bir xil mazmundagi ko'rsatma berishlari e'tiborga molikdir. Agar ota bir yo'nalishda, ona boshqa yo'nalishda va mazmunda topshiriq bersa, bola otasi uchun «u ishni», onasi uchun «bu ishni bajarishga odatlanib boradi. Bu bola ruhiyatida qat'iyatsizlik, ikkiyuzlamachilikni keltirib chiharadi. Uning salbiy o'ibati shakllanayotgan ma'naviyat va vatanparvarliklarda ham o'z «izi»ni qoldiradi.

Ota-ona va farzand munosabatlarida aks munosabat, aloqa, muhim o'rin tutadi. Bu aloqa birinchidan, munosabatlarni muvofiqlashtirish, ikkinchidan, natijalarni kuzatish, uchinchidan, xatti-harakatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Muhimi, ota-ona va farzand munosabatlarining muntazamligini ta'minlash xilma-xil bo'ladi. Ular har doim ham so'z vositasida ifodalanmasligi mumkin. Bu borada ota-onalarning pedagogik bilimlari, sezgirliklari faoliyat mazmuni va uni rivojlanib borishini belgilab beradi. Masalan, ota-onaning o'z farzandida ma'naviyat va vatanparvarliklarni shakllantirishga haratilgan sayi-harakatlari farzandlarining harakatlarida, faoliyatida ko'rinishi mumkin. Ayrim hollarda bu faoliyat maxsus namoyish etilgan holatda bo'lmasligi mumkin. Muhimi, farzandning nutqida, u yoki bu harakatida, xulqida, biror bir faoliyatga bo'lgan qiziqishda, bajarayotgan ishining sifat darajasida namoyon bo'ladi. Ota-ona farzandining bu harakatlarini kuzatayotganini oshkor etib, salbiy holatlarni

to'g'rilab borishi lozim. Shunda farzand har qanday faoliyat nazoratda ekanligini anglab boradi. qolaversa, yaxshi-yomonni farqlashga o'rganib boradi.

Mustaqil O'zbekiston zaminida yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi va o'zini ayamaydi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Oilaviy munosabatlar inson shaxsining rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy omil hisoblanadi. Oila inson shakllanadigan dastlabki ijtimoiy muhitdir. Oilaviy munosabatlar natijasida shakllangan xususiyatlar insonning atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqotiga asos bo'ladi. Odatda shaxs o'z ota-onasining uyida ko'rgan, o'rgangan holatarini o'z oilasida ham shakllantirishga harakat qiladi.

Oilada ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarida pedagogik va psixologik bilimlarning qo'llanishi muhimahamiyat kasb etadi. Bunday bilimlarga – bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy va umumiy psixologiya asoslarini hamda tarbiya metodlarini bilish kabilar kiradi.

Oilaning asosiy, birinchi darajali vazifasi – reproduktiv funktsiya, ya'ni jamiyat nuqtai-nazaridan aholining biologik ko'payishi va shaxsiy jihatdan farzandga bo'lgan extiyojning qoplanishidadir. Shuning bilan bir qatorda oila qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi. Bular:

a) tarbiyaviy – yosh avlodni ijtimoiylashtirish, jamiyat a'zolarining ko'payishini ta'minlash;

b) xo'jalik – jamiyat a'zolarining jismoniy sog'ligini ta'minlash, oilada yosh bolalar va keksalarga g'amxo'rlik;

v) iqtisodiy – ayrim oila a'zolarining shu oilaning boshqa a'zolari uchun moddiy qiymatlarni topishi, voyaga etmaganlar va mehnatga layoqatsiz bo'lganlarning iqtisodiy ta'minoti;

g) birlamchi ijtimoiy nazorat – turmushning turli jabhalarida oila-a'zolari yurish-turish, xulq-atvorining ma'naviy nazorati, shuningdek oila a'zolarining – er-

xotin, ota-ona va bolalar, keksa va yosh avlod orasidagi munosabatlarda javobgarlik va burch tushunchalarining shakllanishi;

d) ma'naviy – oila a'zolari shaxsining rivojlanishi, o'zaro ma'naviy rivojlanishi;

e) ijtimoiy-huquqiy – oila a'zolariga muayyan ijtimoiy xuquqlarning berilishi, ijtimoiy tarkibning qayta shakllanishi;

Insonning jamiyatdagi ijtimoiy rollaridan biri – oilada bajaradigan rolidir. Oiladagi rollar individning oila guruhidagi o'rniga qarab quyidagilarga bo'linadi: er-xotin, ota-ona, farzandlar (o'g'il, qiz, aka, uka, opa, singil), avlodlar orasidagi (bobo, buvi, katta, kichik) va shu kabilardir.

Oilada bolani ijtimoiylashtirish bu – bolaning mavjud madaniyatdan belgilangan me'yorlar, qadriyatlar, bilimlar tizimini tarixiy shakllangan tarzda o'zlashtirishidir.

har bir oilada bolalar va ota-onalarning o'zaro ta'sirlari natijasida ular orasidagi munosabatlar tizimi shakllanadi. Ota-onalar va bolalarning o'zaro ta'sirlarini o'rganish jarayonida ayrim olimlar quyidagi fikrga kelganlar: ota-onalar uchun bola hatti-harakatlarining yuqori va quyi pog'onalarini belgilovchi mezonlar bo'ladi. Bola xarakter temperamenti ota-onalarga ta'sir ko'rsatganidek, ota-ona xarakterlaridagi xususiyatlar bolani oiladagi xulqiga ta'sir qiladi. Oila bola shaxsini shakllantirish jarayonida uning uchun axloqiy me'yorlarni, ma'naviy qadriyatlarni, hatti-harakat asoslarini belgilab beradi. Ota-onalar bolada muayyan me'yorlar tizimini shakllantiruvchi, bolani ma'lum qadriyatarga yo'naltiruvchi tarbiyaviy metod va usullardan foydalanadilar. Tarbiya jarayonida bolaga ta'sir ko'rsatish maqsadida uni rag'batlantirish yoki jazolash bilan bir qatorda, ota-onalar unga namuna ko'rsatish maqsadida tarbiya jarayoniga tevarak-atrofdagilarni (tengdoshlari, qo'shnilar, maktabdagilarni) jalb etadilar. Ota-onalarning hatti-harakatlarini ikki juft asosiy belgilar bilan tasvirlash mumkin: qabul qilmaslik – moyillik, sabr-toqat- nazorat.

Moyillik (mehr). Ota-onalar o'z farzandlarida ko'plab ijobiy xususiyatlar mavjudligiga ishonadilar, bola bilan muloqotga ishtiyoq bildirgan holda bola

qanday bo'lsa, uni shundayligicha qabul qiladilar. Bolaga moyilligi, mehri bo'lmagan ota-onalar bola bilan muloqotdan qoniqish qosil qilolmaydilar va bolaga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar.

qattiqqo'llik (nazorat). qattiqqo'l ota-onalar bolalariga ko'plab harakatlarni ta'qiqlovchi me'yorlarga tayanib ish yuritadilar, bola hatti-harakatlarini qat'iy nazorat qiladilar. Bunday tarbiya yo'lini qo'llovchi ota-onalar odatda o'z farzandarini belgilangan qonun-qoidalar doirasida harakat qiladigan, o'zini jazolashga yo'l qo'ymaydigan etib tarbiyalashga erishadilar.

Ko'ngilchan ota-onalar qattiqqo'l ota-onalarga nisbatan o'z farzandlarining turli qiliqlariga, sho'xliklariga e'tiborsizlik bilan haraydilar, ularning shovqin-suronlariga e'tibor bermaydilar, turli o'yinlarda bolalariga haddan tashhari erkinliklar beradilar.

Bolaga nisbatan o'ta qattiqqo'l bo'lish ham, uni erkalatib yuborish ham ijobiy natija bermaydi. Tarbiyada avtoritar usul bola va ota-ona orasida yotsirash paydo bo'lishiga, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga olib keladi. Ortiqcha erkalatish esa, ota-onaga hurmat hissini kamaytiradi. Bolaga nisbatan munosabatlarning bir tomonlama bo'lishi (qattiqqo'llik yoki erkalatib yuborish) ichki dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatli oilada tarbiya topgan farzand, inson qadrini, millat qadriyatlarini, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin. Bu, shubhasiz, biz, ota-onalar va mustaqil, buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklaydi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida har bir jamiyatda barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor haratgan. Sharqona oila tarbiyasi qadim-qadimdan saqlanib kelinayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatar biz avlodlarga ajdodlarning qoldirgan buyuk me'rosidir. Xususan, Sharq xalqlariga xos oila tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida hayotning negizi va zamini izchil kundalik mehnat ekanligini farzandlarga yetkazish, avlodlarning o'zaro

chambarchas bog'liqligini ko'zda tutib, ota onalarga hamda farzandlariga alohida mehribonlik bildirish, hayotning o'tkinchi ekanligini bilib, mol – dunyo yig'ish, oxir oqibatda ko'pincha ijobiy emas, balki salbiy natija berishini nazarda tutish, boylik yoki shon shuhratga, yuksak lavozimlarga erishgan bilan inson zoti osmonga ustun bo'lolmaydi, deb, hamma vaqt o'zini tiya – bilish, bunday o'ziga xos xislat va xususiyatlar Sharq xalqlariga xosligini ifodalash lozim. Sharq xalqlarining tarbiya borasidagi etuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Oilada farzand tarbiyasi, ota –ona va farzand o'rtasidagi go'zal insoniy munosabat azaldan hammani qiziqtirib keladi. Agarda oilada farzand asrlar bo'yi shakllangan, o'zbekona qadriyatlar asosida voyaga etsa, bu farzand vatanparvar, ilimli shaxs bo'lib shakllansa, mamlakatning kelajagi ta'minlanadi. qadimiy tarixiy madaniy yodgorlik "Avesto"da, bundan uch ming yillar avval inson bolasining tarbiyasiga, baxt va baxtiyorlik haqidagi tushunchalariga alohida e'tibor haratgan. Buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq, qutlug' vazifangizdir", deya, farzandlariga bergan o'gitlarini doimo yodda tutishimiz va unga munosib bo'lishimiz shart.

«Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini yana bir marta o'qtirib o'tmoqchiman», - degan yurtboshimizning fikrlari bizning mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tiborni yanada teranroq anglashga undaydi. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish maqsadi yo'lida ijtimoiy sohada aniq chora tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, ular barkamol avlodni kamol toptirish kabi strategik maqsadga yo'naltirilgandir.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan keyin ham bajarilishi zarur bo'lgan ishlar ko'p, zero, yurtimizning kelajakda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi o'sib

kelayotgan farzandlarimiz salohiyatiga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liqdir.

Umuman barkamol avlod-sog'lomavlod tarbiyasi, istiqbolli kelajak uchun qayg'urish demakdir. Chunki, Vatanni sevgan odamgina unga munosib farzand tarbiyalay oladi. Kasbi, yoshi, jinsi, millatidan qat'iy nazar bugun har bir yurtdoshimiz barkamol avlod tarbiyasiga daxldor bo'lmog'i lozim. Ana shundagina Yurtboshimizning «Sog'lomavlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi», degan dono fikrlari zamirida o'sib kelayotgan barkamol avlodga buyuk ishonch mujassamligini yanada chuqurroq tushunib etamiz.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun bizda yetarlicha ma'naviy asoslar bor.

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarini mutolaa qilgan ekanmiz, ana shu asoslardan biriga duch kelamiz. Unda jamiyatning xar bir fuharosi mansabi, faoliyatidan qat'iy nazar fozil inson bo'lishi kerak, deyiladi. Fozil inson esa o'z davlatining barcha qonun –qoidalarini yaxshi bilishi, lozim bo'lganda Vatani, xalqi uchun jon fido etishi, xalqini sevishi, o'zligini anglab hayot kechirishi lozim.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch” nomli asarida “hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz me'rosi bizni doimo halol mehnat ila yashashga, mardlik, sahovat va kamtarlikka chaqiradi” - deb takidlab o'tadi. Ushbu an'analarni davom ettirish oilada farzand tarbiyasiga e'tibor, yoshlarda mehnatsevarlik, bunyodkorlik qobiliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Bola tarbiyasida eng muhimi avvalo oila hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo'lmaydi hamma narsa, xatto eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta'sir

ko'rsatadi. Ayniqsa rostgo'ylik, samiymiy, sadoqatli, shirinsu'an bo'lish bola kamolotida beqiyos hayotiy muhimvositadir. Bu borada axloq-odobga oid "Xadis" namunalarida shunday deyilgan: "Gaplarning yomoni bu yolg'onchilikdir, yolg'onni xazil bilan ham, jiddiy qilib ham aytib bo'lmaydi, ota o'z bolalariga biror narsani va'da qilib, keyin uni bajarmay ko'rmasin! Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Rostgo'ylik odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon baho beradilar. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi".

Oilada bolalarga yaxshiroq ta'sir ko'rsatish uchun, avvalambor, ularni sevish va hurmat qilish lozim. Chunki, kuzatishdan ma'lum bo'lishicha, bolalar ularni seva olgan, hurmat qila olganlarni qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l yo'riqlarni, turli topshiriqlarni bajonidil ado etadilar. Zero, ota-onaning mehr-muxabbati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal ahloqiy tuyg'ularni ayniqsa, qadriyatni his qilishda yordam beradi. Bu esa hozirgi kunda nafaqatyoshlarimiz orasida, balki kattalar orasida ham kamyob bo'lib qolgan insoniylik sifatlaridan hisoblanadi.

Demak, har bir ota-ona farzand tarbiyasida so'zi va ishi bilan shaxsiy namuna kursatishi, uning xatti-harakatidan yaxshilik alomatlari sezilib turishi, haqiqat va samiymiylikdan saboq bo'lishi, har bir aytgan so'zida iliqlik mehr-muxabbat sezilib turishi lozim ekan. Xalqimiz, "Bola-ota-ona axloqiy qiyofasining ko'zgusi" deb, bejiz aytmagan. Darhaqiqat, yaxshi hulqli, ijobiy fazilatli ota-onalardan bolalariga tabiiy ravishda eng qimmatli axloqiy hislatlar o'tib boradi. Ko'pchilikning tashvishi bilan yashaydigan ota-onalarning bolalari xushf'el, e'tiborli, samiymiy bo'lib o'sadilar. Chunki, bo'nday ota-onalar doimo o'z farzandlarini ezgulikka chorlaydilar. Mana shu o'rinda Yusuf Xos Xojibning "Qutadgu bilig" asarida bayon etilgan bir hikoyani eslab o'tish o'rinlidir. Kunlardan bir kun aql-zakovatda tengi yo'q vazir Oytulda o'z hayotining oxirgi daqiqalari toboro yaqinlashib kelayotganini sezib, o'g'li Ugdukmishga ushbu o'gitlarni aytdi: "Mening yagona tashvishim, - deydi u sening keyingi hayotingdir. Otaning ishi, amali farzandiga singsa, uning hulqida jilvagar bo'ladi. Kimki,

farog'atli kunni istasa, u f'el atvorini sozlash to'g'rilik va rostgo'ylikni tanlashi lozim. Barcha so'zni eshit, ammo darrov ishona qolmagin, uni mantiq tarozisiga solib ko'r, o'z sirlaringni har kimga aytma. Yumshoq ko'ngillik odating bo'lsin. Xasaddan yiroq tur. Uyatsiz kishidan mudom uzoq bo'l. Nomusli, uyat andishali bilan do'st tutin. Biroq ishda shoshilma. Sabr va qanoat qil. Yo'l – yo'riqni o'rtachasini tut. Tilingni ham, bo'g'zingni, ko'zingni ham asragin. Xiyonat elidan chetda bo'l. O'zinga loyiq bo'lmagan ziyonnio'zgalarga ham loyiq bilma. G'azabingni bos, doimo og'irlik qil. Sabr qilish ham jasurlar ishi" deb aytadi.

Tilingdan chiharmi bu yolg'on so'zing,

Bu yolg'on tufayli qorodir yuzing.

Yoru do'stga doimo yaxshilik ula,

Ulug'u, kichikka boqa bil kula.

Darhaqiqat har bir ota-ona o'z farzandini doim tergap, unga pandu nasihatlar berib yaxshi, yomonni ajratib olishga o'rgatsa, uni ezgulikka undasa, albatta, bunday fanzand oriyatli, nomusli bo'lib o'sadi. Kartada quyosh aks etganidek, bolada ota-onaning ma'naviy qiyofasi aks etadi. Zero, Xadisdagi "xech bir ota-ona o'z farzandiga xulqi odobdan buyukroq meros bera olmaydi" deyiladi.

Bir misol, ayrim ota-onalar ish bilan chunchalar bandlarki, xatto o'z uylariga bolalari uxlaganda kelib, o'rinlaridan turmasdan ketadilar. Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, bu toifadagi ota-onalar qachon bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi-yu, qachon ularga o'rnak bo'la oladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, ayrim otalar oilani moddiy jixatdan ta'minlashgina o'z vazifam deb tushunadilar. Yo'q, aslo bunday emas. Bunday kishilar qattiq yanglashadilar. Otalik burchi faqat non topib berishdan iborat emasku ! Natijada, bunday ota-onalarning ta'limini olgan farzandlar jamiyatimizga, maxalla ko'yga, qarindosh urug'lariga, qo'yingchi o'z oilasiga qanday naf keltirishi mumkin. Kuzatishlarimiz jamiyatdagi ko'pgina nohushliklar aynan anashu oilaviy tarbiyaga e'tiborni ancha susayganligidan kelib chihayotganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki tarbiya ijtimoiy borlig'ning murakkab shakli bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyatdir. Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari, ya'ni oila, maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, mahalla tomonidan kompleks tarzda shaxsga ma'naviy ta'sir tarbiya vositasida olib boriladi.

Barkamol inson shaxsini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ma'naviy barkamol inson shaxsini tarbiyalashda oilaning tutgan o'rni benig'oya kattadir. Aslida oila jamiyatdir bir tarkibiy bo'lagidir. Jamiyatda ro'y berayotgan hamma jarayonlar oilaga, kishilarning turmush-tarziga bevosita ta'sir qiladi. Oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o'zaro hurmatda va izzatda yashashi bu yoshlarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashning muhimomillaridan biridir. Avvalambor, oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar, ota-onaning oiladagi o'rni, oila a'zolari bilan munosabati bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy qadriyatlarimizda bola tarbiyasi asosiy mezon hisoblanadi. Oilada har bir farzandni tarbiyalash bolaning tug'ilmasidan oldinroq boshlab yuborilgan. Homilador ayol harom-harishdan nopok ishlardan, maza - bemaza so'zlardan, g'iybat va ig'volardan uzoq tutilgan. Bo'lajak onaning og'irini yengil qilish, avaylab asrash oila a'zolarining burchi hisoblangan. Oilada farzand dunyoga kelgach, uning tarbiyasi bilan barcha barobar, hamjihatlikda shug'ullanishgan. Oilada hariyalarning bo'lishi bolalar tarbiyasiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan. hariyalar tilidan, berilgan pand-nasihatlar, hayotiy tajribalar asosidagi o'g'itlari bolaning oq qog'oz singari musaffo ongiga singdirilib, bola ongidagi bo'shliq to'ldirilgan, kechinmalari, qadriyatari, tafakkuri shakllantirilib, rivojlantirib borilgan.

Bolada axloqiy norma va prinsiplarni shakllantirish avvalo oiladan boshlanadi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning asosiy shakllaridan biridir. Oilaviy tarbiya deganda esa ota-onaning o'z hayotlari turmush tarzlari asosida bolaning dunyoharashi asoslarini axloqiy, siyosiy, estetik va boshqa fazilatlarni, qadriyatlarini shakllantirish jarayoni tushuniladi. Chunki shaxsning turli fazilatlari,

xulq-atvori, xarakteri, pozitsiyasi, amal qilinadigan qoidalariga aynan oilada dastlab oilada shakllanadi.

Tarixdan ma'lumki, oilada o'g'il bola tarbiyasi bilan otalar shug'ullanishgan. O'zbek oilasida azal-azaldan otaning mavqei yurish-turish muomalasi, obro'-e'tibori mehnatga munosabatidan g'ururlanish, undan ibrat olish, farzandlar uchun ham ko'pgina oilalarda ota izidan borish urf-odat bo'lgan. Oilaviy tarbiya birinchi navbatda ota shaxsiga bog'liqdir. Chunki bolalar uning fazilatlarini o'zlariga shakllantirishga intiladigan unga taqlid qilib intilib yashaydilar. Ota qanchalik pok bo'lsa bolalar ham shunchalik axloqli odobli bo'lib voyaga etadilar. Shu sababli otaning oiladagi o'rnini Sharqda hamisha alohida ta'kidlab kelingan.

Qiz bolalar tarbiyasi qadim-qadimdan murakkab jarayon deb hisoblangan. Shuning uchun qizlar tarbiyasida ko'proq asrlar davomida hayotga tadbqiq etib kelinayotgan tarbiya vositalaridan foydalangan ma'qul.

O'zbek oilalarida qiz bolaga uy-ro'zg'or ishlari, muomala madaniyati chuqur o'rgatilishi lozim. qizlar nazokatli, xayoli-iboli qilib tarbiyalanishi oila va ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Ana shunda jamiyatda e'tiborli, axloqli, kamtar hamda mustahkam oilalar yaratiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy islohotlarning samarasi ham ko'p jihatdan barkamol inson shaxsini voyaga etkazish bilan bog'liq. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasida barkamol avlodni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor berilayotir. Ta'lim to'g'risidagi qonunning hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi borilayotgan ishlarimizning yorqin ifodasidir. Tarbiya kishining ongi va faoliyatiga maqsadga muvofiqdir ta'sir ko'rsatish jarayoni ekan, oilaviy tarbiya uning ajralmas qismidir. Inson umri mobaynida amal qiladigan prinsiplari oilada shakllanadi. Chunki shaxsning turli fazilatlarini xulq-atvori xarakteri pozitsiyasi amal qiladigan qoidalariga oilada asos solinadi.

Demak, ma'naviy tahdidlar toboro kuchayib borayotgan bugungi kunda oilaviy tarbiyani rolini kuchaytirish barkamol avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, oilaviy tarbiya-ijtimoiy tarbiya sistemasining asosiy komponentlaridan biridir. Oila jamiyatning ahamiyatli bo'g'ini qudratli instituti hisoblanadi.

Oilaga e'tiborning kuchaytirilishi, uning ma'naviy va moddiy jihatdan mustahkamligi oilaviy tarbiya samaradorligini yanada oshiradi.

XULOSA

Bizga ma'lumki, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish va unga amal qilish doimiy dolzarb masala ekanligi bilan xammaning diqqat markazida turadi. O'zbek oilalarida sog'lomturmush tarzini yuqori darajaga ko'tarish oilaning har bir a'zosi uchun ko'nikma va odat darajasiga aylantirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq . Jumladan oilada har bir ota- ona farzandlarga o'rnak va namuna ko'rsatishi , bolalarga yoshlikdan berilgan vazifani to'la bajarishga odatlantirish malakasini singdirish, bola shaxsida fikrlar bilan birgalikda qaror qabul qila olish, qat'iylikni shakllantirish lozim. Bularni amalga oshirish uchun ularda madaniy gigiyenik ko'nikmalar (tishlarni doim tozalash, ovqatdan oldin albatta qo'lni yuvish, doimo toza va ozoda bo'lib yurish va xokozolar) ni shakllantirib borish ham o'zining ijobiy natijasini bermay qo'ymaydi.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yana bir jihatga alohida e'tibor haratish lozimki, bu oilani ma'naviy – axloqiy jihatdan sog'lomlashtirishda yuqorida ta'kidlanganidek ta'lim muassasalari va mahallaning oila bilan uzviy aloqada bo'lishi muhimahamiyat kasb etadi.

Insonda barkamollik sifatleri birdaniga shakllanib qolmaydi. U qadamba-qadam bola qalbiga singdirib boriladi. Bolaning sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishi, bilimli zukko, ma'nan yuksak bo'lib o'sishiga dastlab oilada zamin yaratiladi. Keyin maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida bunday sifatlarni shakllantirish davom ettiriladi. Prezidentimiz yosh avlodni ma'nan yuksak bo'lib o'sishi uchun tinimsiz g'amxo'rlik qilmoqda. Bolalar sportini rivojlantirish, bolalar ta'lim oladigan muassasalarning moddiy texnik ba'zasini mustahkamlash kabi sohalaridagi tadbirlar shular jumlasidandir. Lekin mana shu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish uchun ham oila ma'naviyatining o'rni beqiyos.

Oilada bola ma'naviyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

oilada sog'lom oila muhiti;

oiladagi er-xotin o'rtasidagi munosabatdagi o'zaro hurmat;

oilada ilmga, kitobga, ma'naviy merosimizni o'rganishga bo'lgan munosabat;

bola tarbiyasiga mas'uliyatning yuqoriligi;

bolalarda yuksak ma'naviyat va keng dunyoqarash, mustahkam g'oyaviy e'tiqodni tarbiyalash;

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatli va ma'rifatli oilada tarbiya topgan farzand shaxs sifatida shakllanadi. Milliy qadriyatlarni, xurmat qiladigan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O'zbekiston, 1996, 3-tom.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T.: Sharq, 1998.
4. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T.: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T.: O'zbekiston 2000.
6. Karimov I.A. "Yuksak manaviyat-yengilmas kuch". Toshkent, "Manaviyat". 2008.
7. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida " Toshkent "O'zbekiston " 2012
8. A'zamxo'jaeva E.A. "Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi". T.: 2002.
9. Abu Rayhon B. "Xikmatlar". T.: 1973.
10. Aliqulov X. Sharq mutafakkirlari axloqi haqida. T.: 1979.
11. A.Navoiy. "Maxbub-ul Qulub". T.: 1983.
12. Asqarova O'.M M.Hayitboev M.S Nishonov "Pedagogika" Toshkent "Talqin" 2008
13. Asqarov I.Sh., Mamtqulova R. H.D. Norqulov "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi" Toshkent 2009
14. Beknazarova L., Jabborov A. "O'qtuvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari" Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlari akademiyasi "Fan " Nashiryoti 2008.

15. Tursunov I.Y, Nishonaliyev U.N “Pedagogika kursi ” Toshkent “O’qituvchi” 1997
16. Hasanboeva O. “Oila pedagogikasi ” “Aloqachi ” nashiryoti 2007
17. Ibragimov X.I, Yuldoshev U.A. “Pedagogik psixologiya ” Toshkent 2009
18. Yusupova P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi ” Toshkent “O’qituvhi” 1993.
- 19 www.pedagog.uz
- 20www.edu.uz
- 21 www.ziynet.uz
- 22 www.gor.uz
- 23 www.estedod.uz
- 24 www.cer.uz